VOLUME 3, ISSUE 11

Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences

Exact and Natural Sciences

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ

2024/11

ISSN 2181-3515
VOLUME 3 ISSUE 11
NOVEMBER 2024

https://erus.uz/

EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES
VOLUME 3, ISSUE 11, NOVEMBER, 2024

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038442

PSEUDOMONAS AERUGINOSA BAKTERIYASINING YUQUMLI KASALLIKLARIDAGI O‘RNI

Muratova Zbarziyat Tagirovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti.

Xolmuradov Askar Bekmuradovich
Qarshi davlat universiteti tibbiyot fakulteti o‘qituvchisi

ABSTRACT: *Ushbu tadqiqotda Pseudomonas aeruginosa mikrobi odamlar va parranda populyatsiyasida, ayniqsa tovuq embrionlari va jo‘jalaridagi tarqalishi va patogenligi o‘rganildi. Oxirgi o‘n yillikda olingan laboratoriya ma’lumotlarini retrospektiv tahlil qilish natijasida O‘zbekistonda turli klinik muassasalar va parranda fermalarida P. aeruginosa infeksiyalarining sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotda bu patogenning tarqalishiga sabab bo‘lgan omillar, jumladan, sanitariya qoidalarining buzilishi, hayvonlarning tiqilinch sharoitda saqlanishi va boshqa yuqumli kasalliklarda ikkilamchi opportunistlar sifatidagi roli ham o‘rganildi. Olingan natijalar P. aeruginosa tarqalishini nazorat qilish va uning keltirib chiqaradigan kasallik va o‘lim holatlarini kamaytirish uchun qat’iy sanitariya va bioxavfsizlik choralarini joriy etishning ahamiyatini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Pseudomonas aeruginosa, psevdomona sepsisi, parranda, tovuq embrionlari, antimikrob rezistentlik, bioxavfsizlik, jamoat salomatligi, veterinariya tibbiyoti.*

KIRISH.

Pseudomonas aeruginosa yoki ko‘kyiring tayoqchasi gram manfiy aeroob bakteriya bo‘lib, spora hosil qilmaydi. U yuqori patogenlik xususiyatiga ega va normal immunitetli, hamda ayniqsa immuniteti susaygan bemorlarda turli infeksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin [1]. Keng ta’sir doirasi, antibiotiklarga chidamliligi va mezbon organizm bilan murakkab o‘zaro ta’sir mexanizmi ko‘kyiring tayoqchasini zamonaviy klinik amaliyotda davolash qiyin bo‘lgan patogenlardan biriga aylantiradi [2]. Pseudomonas aeruginosa tez-tez odamlar va qushlarda turli infeksion kasalliklarning qo‘zg‘atuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi [4, 8]. Ayniqsa, bu bakteriya

jarohatlar, jarrohlik amaliyotlaridan keyin va statsionar sharoitda infeksiyalarni keltirib chiqarib, gospital infeksiyalar rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi [6, 9].

So‘nggi yillarda tovuq jo‘jalarida psevdomonad sepsisi alohidagi kasallik sifatida ko‘rib chiqilyapti (Bessarabov B.F., 2020; Otrыganev G.K. va boshqalar, 2021). Borisenkova A.N. va hamkorlarining tadqiqotlariga ko‘ra (2019), ko‘kyiring bakteriyalari tovuq embrionlari va hayotining birinchi kunlaridagi tovuq jo‘jalarini zararlaydigan boshqa ma’lum patogenlar orasida dominant qo‘zg‘atuvchiga aylanmoqda [3, 11,14].

TADQIQOT MAQSADI.

Yuqoridagilarga asoslanib, bu masalani tibbiyot, veterinariyada batafsil o‘rganish va amaliy materiallar to‘planishi bilan odamlar, hayvonlar va qushlardagi infeksion patologiya roli haqida xulosa chiqarish dolzarb hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USULLAR.

Odamlar va qushlarda psevdomonoz kelib chiqishini so‘nggi 10 yil ichidagi SamMU va O‘zNIIV laboratoriya ma’lumotlari asosida o‘rganildi. Epidemiologiya va epizootologiyaning viloyat xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasining bir qator tibbiyot klinikalari, ferma va parrandachilik xo‘jaliklarida o‘tkazildi. Ko‘kyiring bakteriyasi kulturasi statsionar bemorlardan, shuningdek inkubatorlardagi tuxum qobig‘idan, o‘lik embrionlardan, tovuq jo‘jalari va katta qushlarning parenximatoz organlaridan ajratib olindi. Buning barobarida morfologik, bo‘yoqlarga munosabati, kultural biokimyoviy xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, patogenlik va antibiotiklarga sezgirlik ham o‘rganildi. So‘rtmalarni bo‘yash Gram usulida amalga oshirildi, preparatlar Leica DM1000 mikroskopida mikroskoplanadi. Ko‘kyiring bakteriyasi kulturalarining harakatchanligi ezilgan va osilgan tomchi usuli bilan aniqlandi.

Ajratilgan kulturalarning biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash uchun ularni Giss muhitiga har bir kultura uchun ikkitadan ekib, ayrim probirkalarga muhit yuzasiga sterillangan vazelin moyidan 0,5 sm balandlikdagi ustuncha qilib quyib, anaerob sharoit yaratiladi. Ekilgan kulturalarni +37°S haroratda inkubatsiya qilinadi. Shakarlarni parchalash xususiyatlarini turli uglevodlar (glyukoza, laktoza, mannit, saxaroza, ramnoza, ksiloza, adonit, arabinoza, maltoza, inulin, sorbit, dulsit, dekstrin) bo‘lgan differensial-diagnostika muhitlariga kulturalarni ekib o‘rganildi. Indol va sulfid vodorodni indikator qog‘ozchalardan foydalanib aniqlanadi. Shuningdek, metilrot, xloroform va katalaza bilan reaksiya qo‘yiladi. Ko‘kyiring tayoqchasining patogenligi oq sichqonlar, tovuq embrionlari va jo‘jalalarda biologik sinovlarni o‘tkazib laboratoriya modelida aniqlanadi. Ko‘kyiring tayoqchasining antibiotiklarga sezgirligi disklardan foydalanib agarda diffuziya usuli bilan o‘rganiladi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Psevdomonoz kasalligi keng tarqalgani va tez-tez uchrashi bilan ajralib turdi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi 10 yil ichida mazkur kasallik ko‘plab klinikalar, gospitallar, fermalar va parranda fabrikalarida har yili uchrab kelmoqda. Kuzatuvlarga ko‘ra, kasallikning paydo bo‘lishi va tarqalishiga antisanitariya, ayniqsa, parranda fabrikalarida tiqilinch joylashtirishda, sexlardagi mikroklimatning buzilishi sabab bo‘lmoqda. Havoning namligining oshishi, kundalik saralash va zaif, yaroqsiz va kasal qushlarni yo‘q qilish ishlarining olib borilmasligi kasallikning tarqalishiga olib kelmoqda. Shu sababli, kasallik ko‘pincha parrandalarni parvarishlash va boqishda sanitariya-gigiena qoidalari buziladigan xo‘jaliklarda uchrashi aniqlandi. Bunday xo‘jaliklarda psevdomonoz kasalligining qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan patogen shtammlar saqlanib qolganda, kasallik doimiy xarakter olgan holda yildan-yil takrorlanishi kuzatildi. Ko‘pincha psevdomonoz asosiy kasallikni murakkablashtiruvchi ikkilamchi infeksiya sifatida kechishi kuzatildi. Respublikamizning ba’zi klinikalari, shifoxonalari va parrandachilik xo‘jaliklarida psevdomonoz stafilokokk, koliseptitsemiya, salmonellyoz, pulloroz-tif, infeksion laringotraxeit bilan birga uchradi. Odatda, psevdomonoz qo‘zg‘atuvchisi inkubatsiya davrida va postembrional davrning birinchi kunlarida embrionlarning nobud bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ko‘p yillik ma’lumotlarimiz va kuzatuvlarimizga ko‘ra, infeksiyaning asosiy manbalari shifoxonalardagi gigiena qoidalarining buzilishi, parrandachilikda hayvon kelib chiqishli ozuqa qo‘shimchalari, ko‘kyiring tayoqchalari bilan ifloslangan omuxta yemlar, kasal qushlar, ifloslangan chiqindilar, tuxumlar, inkubatsiya chiqindilari va boshqalar hisoblanadi.

Psevdomonoz qo‘zg‘atuvchisining biologik xususiyatlarini o‘rganishda quyidagilar aniqlandi: morfologik va bo‘yoq oluvchanlik xususiyatlari bo‘yicha qisqa, to‘g‘ri yoki egri tayoqchasimon, yakka holda joylashgan, harakatchan, spora va kapsula hosil qilmaydi. Mikrob anilin bo‘yoqlari bilan bo‘yaladi, gram manfiy. Ko‘kyiring tayoqchasi zich ozuqa muhitlarida, shuningdek, GPB, GPA, Endo muhitida yaxshi o‘sdi. Ko‘pchilik shtammlar sitoxromoksidaza, katalaza hosil qiladi, glyukonat, mochevinani parchalab, sitratlarni o‘zlashtirdi, asetil karbinol hosil qilmadi. Ko‘plab kulturalari indol manfiy, sutni ivitdi, jelatinni eritdi.

Pseudomonas aeruginosa eritrotsitlarni parchalab, beta-gemoliz hosil qildi, mochevinani parchalab, avval voronka, so‘ng muhitning qatlamlanishiga olib keldi. Giss muhitlarida ekilganda, Pseudomonas aeruginosa kulturalarining aksariyati aerob sharoitda glyukoza, arabinoza, manit, galaktoza, ksilozani kislota va gaz hosil qilib fermentladi. Saxaroza va laktozani fermentlashi kuzatilmadi.

Ajratilgan Pseudomonas aeruginosa kulturalarining patogen xususiyatlari oq sichqonlar, tovuq embrionlari va 10-15 kunlik jo‘jalarga yuqtirish orqali o‘rganildi. Oq sichqonlarga yuqtirilganda, ular 2-3 kunda nobud bo‘ldi, tovuq embrionlari esa 48

soatdan so‘ng hosil bo‘lgan va giperemiya belgilari bilan nobud bo‘ldi. Yuqtirilgan jo‘jalar ikkinchi kuni patlari to‘kilib, qizarish belgilari bo‘lib, ozuqadan bosh tortishi, yotoqsirashi kuzatildi. Jo‘jalarning nobud bo‘lishi ikkinchi kuni qayd etildi.

Psevdomonoz qo‘zg‘atuvchisi kulturalarining antibiotiklarga sezgirlik darajasi o‘sish to‘xtash zonasi diametrining kattaligi bo‘yicha baholandi. Tajribalarimizda neomitsin, olemorfotsiklin, streptomitsin va polimiksinga sezgirlik aniqlandi. G.K.Paliy va hamkorlarining (2015) ma’lumotlariga ko‘ra, chorvachilikda keng qo‘llaniladigan spermosan preparati (penitsillin va streptomitsinning 35 ming birlikdan iborat aralashmasi, oq streptotsid – 0,2 g) ko‘kyiring tayoqchasiga faqat 2,5 mg/ml va undan yuqori konsentratsiyada zararli ta’sir ko‘rsatgan.

MUHOKAMA.

So‘nggi yillarda odam va qushlar patologiyasida shartli-patogen mikroorganizmlarning roli kuchayishi kuzatilmoqda. Psevdomonoz dunyoning ko‘plab mamlakatlari va MDHda qayd etilmoqda (Y.Estimov va boshqalar, 2018; A.V.Selivanov va hamkorlari, 2021; S.T.Dzyubak, 2023). Bugungi kunda vujudga kelgan bunday vaziyatda kasallikni tashxis qilishni ishlab chiqishga katta ahamiyat berilmoqda. Bizning bir necha yil davomida olib borgan tadqiqotlarimiz ko‘kyiring tayoqchalarini ajratish uchun ratsional sxemani taklif qilish imkonini beradi. O‘tkazilgan epidemiologik va epizootologik tekshiruvlar va laboratoriya tadqiqotlar majmui psevdomonozning keng tarqalgani va odam va qushlarning infeksion patologiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSALAR.

1. Psevdomonoz sanitariya-gigiena, veterinariya-profilaktika va davolash tadbirlarini tashkil etish bilan mustaqil nozologik birlik sifatida hisobga olinishi kerak.
2. Psevdomonoz qo‘zg‘atuvchisini ajratish va uning biologik xususiyatlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu xususiyatlar kasal odam va qushlardan ajratilgan va turli tadqiqotchilar tomonidan ta’riflangan kulturalarga o‘xshashdir.
3. Psevdomonozga tashxis patologik materialdan tipik kultural-morfologik xususiyatlarga va ushbu tur uchun xos bo‘lgan xarakterli belgilarga ega bo‘lgan kulturalarni ajratish holati sifatida belgilanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Akbarovich, A. A., Murodullayevich, T. O., & Shodievich, S. H. (2023). OG ‘IZ BO ‘SHLIG ‘I SHILLIQ QAVATLARINING ZAMBURUG ‘LI KASALLIKLARIDA EOZINOFIL KO ‘RSATKICH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY*, *1*(6), 116-119.
2. Giyosovna, S. D., Maqsudovna, O. G., Isrofilovna, M. N., & Shodiyevich, S. H. (2023). BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(7), 1154-1162.
3. Mardanovna, I. M., & Shodievich, S. H. (2023). GEMOLITIK ESHERIXIYALARNING ADGEZIVLIK XOSSALARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY*, *1*(6), 198-202.
4. Sh, S. X., & Sa’dinov, P. O. (2014). Rol gemoliticheskix esherixiy v strukture ostrых kishechnых infeksiy u detey i effektivnost primeneniya probiotikov v ix lechenii.
5. Shayqulov H. S. et al. DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 20-24.
6. Shayqulov, H. S., & Mamarasulova, N. I. O‘TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARNING AJRALISHI.«. *МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ*, *103*.
7. Shodievich, S. H., & Ubaydullaevich, N. D. (2023). BAKTERIAL ICHBURUG ‘BILAN OG ‘RIGAN BEMORLARNING IMMUN KO ‘RSATKICHLARIDAGI AYRIM O ‘ZGARISHLAR. GOLDEN BRAIN, 1 (5), 163–167.
8. Маматова, М. Н., & Шайкулов, Х. Ш. (2024). Применение реакции непрямой гемагглютинации для определения антител к стафилококковому токсину. *Журнал «Экономика и социум*, (7), 122.
9. Маллаходжаев, А. А., Шамсиддинова, М. Ш., Жамалова, Ф. А., & Шайкулов, Х. Ш. (2021). ГЕМОЛИТИЧЕСКИЕ ЭШЕРИХИИ В ЭТИОЛОГИИ КИШЕЧНЫХ РАССТРОЙСТВ У ДЕТЕЙ И ГЕНЕТИЧЕСКОМ МЕХАНИЗМЕ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ. In *VOLGAMEDSCIENCE* (pp. 588-589).

10. Нарзиев Д.У., & Шайкулов Х.Ш. (2024). ТЕЧЕНИЕ ОСТРОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВЫДЕЛЕННОЙ МИКРОФЛОРЫ. Экономика и социум, (2-1 (117)), 1636-1642.
11. Шайкулов, Х. Ш. (2023). Antibiotikorezistent laktobakteriyalardan foydalanishning samaradorligi. *Молодой ученый.—2023*, *10*(457), 268-271.
12. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Изменению микробиоценоза кишечника при поносах у детей. *Молодой ученый.–2024*, *8*(507), 24-26.
13. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Макро-и микроэлементный состав крови у больных аллергическим дерматитом. *Молодой ученый.—2024*, *5*(504), 61-63.
14. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Состояние свертывающей и антисвертывающей системы крови у здоровых людей. *Молодой ученый.—2024*, *5*(504), 59-61.
15. Шайкулов, Х. Ш., & Исокулова, М. М. (2023). Характеристика энтеропатогенных кишечных палочек, выделенных у детей раннего возраста. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 489-494.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038457

ОТНОШЕНИЕ НУКЛЕОТИДОВ В ДНК И ЗАДАЧИ, СВЯЗАННЫЕ С ИХ РАСЧЕТОМ

Кахорова Кароматхон Совронбаевна
Намаганский Государственный Университет, Медицинский факультет,
Преподаватель кафедры общих медицинских дисциплин

Хусенов Сардор Ортикович
студент 1- курса медицинского факультета, направление лечебное дело

АННОТАЦИЯ

В данной работе рассматриваются ключевые аспекты нуклеотидов в ДНК, а также решаются задачи, связанные с их расчетом. Основное внимание уделяется соотношениям между нуклеотидами и правилам кодирования белков.

Ключевые слова: *ДНК, нуклеотиды, аминокислоты, кодирование, задачи.*

Введение

ДНК (дезоксирибонуклеиновая кислота) — это биополимер, содержащий генетическую информацию всех живых организмов. Основой структуры ДНК являются нуклеотиды, каждый из которых состоит из азотистого основания, пятиуглеродного сахара (дезоксирибозы) и фосфатной группы. В ДНК есть четыре типа азотистых оснований:

Аденин (A) — пуриновое основание;
Тимин (T) — пиримидиновое основание;
Гуанин (G) — пуриновое основание;
Цитозин (C) — пиримидиновое основание.

Нуклеотиды ДНК объединяются в двойную спираль благодаря водородным связям между комплементарными основаниями: аденин всегда связывается с тимином (A=T), а гуанин — с цитозином (G≡C). Это комплементарное правило объясняется гипотезой Чаргаффа, которая гласит, что количество аденина всегда равно количеству тимина, а количество гуанина равно количеству цитозина.

Основные правила для решения задач

Для решения задач, связанных с расчетом нуклеотидов в молекуле ДНК, важно учитывать несколько ключевых правил:

1. Комплементарность оснований:

A = T (аденин равен тимину);

G = C (гуанин равен цитозину).

2. Соотношение нуклеотидов:

В любой цепочке ДНК сумма нуклеотидов A + G = T + C.

Процентное содержание одного нуклеотида позволяет вычислить процент содержания остальных, используя правило Чаргаффа.

3. Кодирование белков:

Для кодирования одной аминокислоты требуется триплет (три нуклеотида) — это кодон. Соответственно, количество нуклеотидов в гене, кодирующем белок, можно вычислить как количество аминокислот, умноженное на 3.

Задача 1: Расчет количества тимина

Условие: В фрагменте ДНК соотношение тимина и гуанина равно 1:2. Этот фрагмент отвечает за синтез белка с 87 аминокислотами. Найдите количество тимина в этом фрагменте ДНК.

Решение: Пусть количество тимина равно x, тогда количество гуанина равно 2x. Общее количество аминокислот равно количеству нуклеотидов, умноженному на 3: 87 * 3 = 261. Тогда: x + 2x = 261

3x = 261

x = 87.

Количество тимина равно 87.

Задача 2: Определение количества гуанина

Условие: В ДНК найдено 120 нуклеотидов, из которых 30% занимают аденин. Сколько гуанина содержится в данной молекуле ДНК?

Решение: Количество аденина равно 30% от 120:

A = 0.3 * 120 = 36.

По правилу Чаргаффа A = T, значит, T также равно 36. Теперь найдем количество гуанина. Сумма всех нуклеотидов A + T + G + C = 120. Пусть G = x и C = x. Тогда: 36 + 36 + x + x = 120

72 + 2x = 120

2x = 48

x = 24.

Количество гуанина равно 24.

Задача 3: Определение общего количества нуклеотидов

Условие: В молекуле ДНК соотношение аденина к цитозину составляет 3:1. Если в молекуле ДНК 400 нуклеотидов, найдите количество каждого типа нуклеотидов.

Решение: Пусть количество цитозина равно x, тогда аденин равен 3x. По правилу Чаргаффа A = T, значит, T = 3x и G = x. Общее количество нуклеотидов: 3x + x + 3x + x = 400.

8x = 400

x = 50.

Количество аденина = 3 * 50 = 150,

Количество тимина = 150,

Количество гуанина = 50,

Количество цитозина = 50.

Заключение

В ходе работы мы рассмотрели важные аспекты соотношений нуклеотидов в ДНК и задачи, связанные с их расчетом. Знание этих аспектов позволяет лучше понять генетическую информацию, заложенную в молекулах ДНК, а также их роль в кодировании белков.

Использованные источники

1. Генетика: Учебник / Г. А. Егорова, Т. И. Федосеева. – М.: Издательство МГУ, 2018.

2. Molecular Biology of the Cell / Alberts et al. – Garland Science, 2015.

3. ДНК: молекула, которая управляет жизнью / Л. Д. Клейн. – Издательство Эксмо, 2017.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038477

KANDIDAMIKOZ RIVOJLANISHIDA YOD YETISHMASLIGINING AHAMIYATI

Muratova Zbarziyat Tagirovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, mikrobiologiya,
virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti.

Yusupov Mirza Muradovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti fiziologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

ABSTRACT: *Yod yetishmagan hududda yashovchi aholida qalqonsimon bez faoliyati va ularning qonida uchraydigan Candida turdagi zamburug‘lar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Qalqonsimon bezi salomatligining turlicha (nazorat guruhi, autoimmun tireoidit, diffuz toksik bo‘lmagan zob) holatlarida bo‘lgan 102 kishi (34 nafar bola va 68 nafar katta yoshdagilar) kuzatildi. Qalqonsimon bez gormonlari darajasi va qondagi Candida turdagi zamburug‘lar miqdori aniqlandi. Autoimmun tireoidit va diffuz toksik bo‘lmagan zobli bemorlarda qondagi Candida turdagi zamburug‘lar miqdori nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgani aniqlandi.*

Xulosa: *Yod yetishmagan hudud aholisida qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi sababli ularning qonida Candida turdagi zamburug‘lar miqdorining oshishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud.*

Kalit so‘zlar: *Candida turdagi zamburug‘lar, qalqonsimon bez, autoimmun tireoidit, diffuz toksik bo‘lmagan zob, yod yetishmasligi.*

KIRISH.

Qon infeksiyalari etiologik tuzilishiga ko‘ra va yuqtiruvchi mikroorganizmlarning juda keng qamrovligi bilan tavsiflanadi, bular har qanday patogen va patogen bo‘lmagan mikroorganizmlar, shuningdek, organizmning faollashgan autoflorasi ham bo‘lishi mumkin [1]. Qon infeksiyalari rivojlanishining turli etiologik omillari orasida so‘nggi yillarda shartli patogen guruhga mansub Candida albicans, Candida tropicalis kabi achitqisimon zamburug‘lar bilan bog‘liq infeksiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda [2]. Candida albicans va Candida tropicalis

turkumiga mansub zamburug‘lar inson yoki hayvon organizmiga tushganda to‘qima parazitik shaklga aylanadi va psevdogiflar yoki psevdomitseliy hosil qiladi [3, 4]. Teri va shilliq qavatlarining shikastlanishi bilan bir qatorda, turli organlarning chuqur, tizimli shikastlanishlari, shuningdek, septik shakllari ham ta’riflangan. Odamlardan tashqari, qushlar, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar ham kandidoz bilan kasallanadi.

Kandidamikoz infeksiyalarining rezervuari tabiatda asosan tuproq bo‘lib, inson organizmida esa qon hisoblanadi, bu yerda zamburug‘larning to‘qima shakli uzoq vaqt davomida kasallikning yaqqol klinik belgilarisiz saqlanib qoladi. Candida albicans va Candida tropicalis turkumiga mansub zamburug‘lar tabiatda hamma joyda tarqalgan bo‘lib, bu butun dunyo aholisining ular bilan ommaviy kasallanish ehtimoli mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular past virulentlik va zaif antigen xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ularning inson qonida infeksion jarayon belgilarisiz uzoq vaqt saqlanib qolishi bilan izohlanadi va ularni shartli-patogen mikroorganizmlar guruhiga ajratib turadi. Bundan tashqari, kasallikning namoyon bo‘lishiga insonning immun tizimi to‘sqinlik qiladi. Biz turli organ to‘qimalaridagi gistotsitlar, makrofaglar, T- va V-limfotsitlarda Candida turkumiga mansub zamburug‘larni fagotsitlashi xususiyatlarini kuzatdik. Candida turkumiga mansub zamburug‘larning patogen xususiyatlari boshqa turdagi mikozlarda bo‘lgani kabi makroorganizmning himoya kuchlari sezilarli darajada pasayganda, ayniqsa yod yetishmasligi sharoitida, organizm immuniteti sezilarli darajada pasayganda namoyon bo‘ladi. Zob endemiyasi kuzatilayotgan hududlarda aholining katta qismida qalqonsimon bezning kattalashishi va tireopatiyaning boshqa shakllari kuzatilganda, uning funksional holatini baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirda turli patologik holatlarda qalqonsimon bezning funksional holati, roli va ishtirokini o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Adabiyotlarda mikrobli etiologiyali yiringli kasalliklar va sepsislarda qalqonsimon bezning funksional holatini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ishlar mavjud. Ammo, C. albicans va C. tropicalis turkumiga mansub zamburug‘lar qonda bo‘lgan holatlarga taalluqli tadqiqotlar hozirgacha olib borilmagan. Qalqonsimon bezning funksional holati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni radioimmunologik usul bilan maxsus in vitro test-naborlari yordamida yodning transport-organik fazasini o‘rganish orqali olish mumkin. Bu turdagi tadqiqotlarning yuqori sezgirlik va o‘ziga xoslik bilan bir qatorda nisbatan oddiyligi va yaxshi qabul qilinishi afzalliklaridan hisoblanadi.

TADQIQOT MAQSADI.

Ushbu ishda biosferada yod yetishmasligi kuzatilayotgan hududda yashovchi kishilarda qonda uchraydigan Candida turdagi zamburug‘ miqdori o‘zgarishi va qalqonsimon bez faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadi qo‘yilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI.

Tadqiqotda Samarqand viloyatida yashovchi 34 nafar bola va 68 nafar katta yoshdagi aholisi qatnashdi. Qondagi qalqonsimon bez gormonlari miqdori va Candida albicans hamda Candida tropicalis turdagi yetilgan zamburug‘lar soni o‘rganildi. Nazorat guruhini 10 nafar bola va 13 nafar katta kishi tashkil etdi. Asosiy guruhni autoimmun tireoiditli 24 nafar bola va 55 nafar katta kishi (14 nafar bola va 38 nafar katta kishi) hamda toksik bo‘lmagan diffuzli zobli 10 nafar bola va 17 nafar katta kishi tashkil etdi.

Tadqiqot o‘tkazilgan shaxslarning yoshi 5 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lib, 5 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan 11 nafari o‘g‘il bola va 23 nafari qiz bola, hamda 15 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan 29 nafar erkak va 39 nafar ayol kuzatildi.

Candida turdagi zamburug‘lar shartli patogen xususiyatga ega bo‘lgani sababli, qondagi zamburug‘ miqdorini miqdoriy tahlil qilindi. Standart uslublarga muvofiq, tekshirilayotgan shaxslardan barmoq uchidan yoki venadan 0,02 ml qon olinib, probirkaga solinib, shisha tayoqcha bilan aralashtirilib, Goryaev kamerasida mikroskop ostida ko‘rildi.

Yetilgan hujayralarni hisoblash qon suyultirish (200), biriktirilgan ko‘rish maydonlari soni (100) va katta kvadrat hajmi (1/250)dan kelib chiqib formula bo‘yicha amalga oshirilgan. X=(s×250×200)/100 ya’ni X=S×500 bu yerda:

X-qonning 1 mkm³ dagi yetilgan zamburug‘ hujayralari soni;

S-100 ta katta kvadratdagi yetilgan zamburug‘ hujayralari soni. Amalda sog‘lom kishilarda qonning 1 mkm³ dagi Candida zamburug‘ining yetilgan hujayralari soni 1000 dan 6000 gacha uchrashi mumkin.

Qalqonsimon bezning funksional holati gipofiz gormoni – tireotropin (TTG) va qalqonsimon bez gormonlari – triyodtironin (T3) va tiroksin (T4) miqdorini qon zardobida radioimmun metod yordamida mikroanaliz qilish (in vitro) orqali aniqlandi. Qalqonsimon bez gormonlarining normal ko‘rsatkichlari sifatida ushbu institut tomonidan viloyatning turli hududlarida aholi orasida keng qamrovli tadqiqot o‘tkazish jarayonida olingan ma’lumotlar qabul qilindi (2018-2019 yillar), ya’ni T3 – 1,7±0,12 nmol/l, T4 – 1333,0±11,6 nmol/l va TTG – 2,5±0,23 mME/l. Olingan natijalar har bir ko‘rsatkich uchun M±m, 95% ishonch intervallari va qatorning variatsiya koeffitsientini aniqlash bilan ishlandi.

NATIJALAR VA ULARNI MUHOKAMA QILISH.

Mikologik tadqiqotda nazorat guruhida – 10 nafar bola (o‘g‘il bolalar – 3, qiz bolalar – 10) va 13 nafar kattalarda (erkaklar – 6, ayollar – 7) qonda Candida turkumiga mansub yetilgan zamburug‘ hujayralarining normal miqdori aniqlandi. Bu guruhdagi tekshirilgan shaxslarda klinik kuzatuvlarda hech qanday somatik va infeksion

kasalliklarning belgilari, shuningdek, qalqonsimon bezning funksional zo‘riqish holatlari kuzatilmagan.

Autoimmun tireoidit va diffuz toksik bo‘lmagan zob kasalliklariga chalingan 6 nafar o‘g‘il bola va 18 nafar qiz bola, shuningdek, 55 nafar kattalarda (erkaklar – 21, ayollar – 34) qonning 1 mkm hajmidagi yetilgan zamburug‘ hujayralarining miqdori oshib ketgan. Qonning mikologik tadqiqoti natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Qonning mikologik tadqiqoti ko‘rsatkichlari
(qonning 1 mkm hajmidagi Candida turkumiga mansub yetilgan zamburug‘ hujayralarining miqdori)

Tekshirilganlar guruhi	Tekshirilganlar soni	Qondagi zamburug‘ hujayralari miqdori		
		Normal	Oshgan	
		1000-6000	6000-9000	9000-12000
Jami	**102**	**23**	**33**	**31**
5 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar	34	10	16	5
Bolalar (o‘g‘il bolalar)	11	4	3	2
Qizlar	23	6	13	3
16-55 yoshdagi kattalar	68	13	17	26
Erkak kishilar	27	6	8	9
Ayollar	41	7	9	17

Biz kuzatgan tekshirilgan guruhdagi autoimmun tireoiditning asosiy belgilari gipotireoz belgilari bo‘ldi: yuz shishish, sarg‘ish-oq rang, teri qoplamalarining quruqligi va epidermis qatlamining po‘stlanishi. Sochlarning sinuvchanligi va quruqligi oshishi, to‘kilishining kuchayishi, tirnoqlarning sinuvchanligi oshishi. Ba’zilarining qonida I-II darajali normoxrom anemiya belgilari aniqlandi. Asab-mushak tizimi tomonidan: harakatlar sekinlashgan, holsizlik, uyquchanlik, xotiraning pasayishi. Qalqonsimon bezni palpatsiya qilishda uning II-III darajaga kattalashgani aniqlandi. Diffuz toksik bo‘lmagan zob bilan fizikal tekshiruvda qalqonsimon bezning faoliyati buzilmasdan (bemorning eutireoid holati saqlanib qolgan holda) kattalashgani aniqlandi. Qondagi TTG va qalqonsimon bez gormonlari miqdorini radioimmunologik usul bilan tekshirish natijasi shundan dalolat berdiki, bolalar va kattalardan iborat nazorat guruhida T3, T4 va TTG konsentratsiyasi normal ko‘rsatkichlardan kam farq qildi.

Autoimmun tireoidit va diffuz toksik bo‘lmagan zobda esa bu gormonlar miqdori sezilarli darajada pasayib ketganligi kuzatildi. Qalqonsimon bezning gormon ishlab chiqarish funksiyasi ko‘rsatkichlari va Candida turiga mansub yetilgan zambo‘rug‘ hujayralarining miqdoriy tarkibini solishtirma tahlil qilish ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatdi (2-jadval)

2-jadval

Candida turiga mansub yetilgan zambo‘rug‘ hujayralari, qalqonsimon bez gormonlari va qondagi TTGning miqdoriy tarkibi

qonidagi zamburug‘ miqdori	Tekshirilganlar soni	T3, nmol/l	T4, nmol/l	TTG, MEd/l
Bolalar (5-14 yosh)				
6000 gacha	10	2,2±0,56	97,5±28,7	1,78±0,26
6000-8000	24	1,24±0,51	75,0±34,6	4,44±1,92
Kattalar (15-55 yosh)				
6000 gacha	13	2,38±0,54	105,7±20,36	1.73±0,46
6000-9000	17	!,56±0,56	92,0±29,8	1,36±0.47
9000-12000	26	1,41 ±0,63	83,56±32,8	1.85±0.53
12000 dan ortiq	12	1,39±0,21	76,7±17.1	1,4=0.44

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bolalar qonida Candida turidagi zamburug‘lar miqdori oshganda T4 gormoni miqdori 76,92% gacha o‘rtacha pasayishi va T3 gormoni miqdori 55,36% gacha sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan. Qondagi T4 gormoni miqdori kamaygani sababli, TTG gormoni miqdori normaga nisbatan deyarli ikki barobarga oshgan, bu esa TTG gormonining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Katta yoshdagi kandidoz tashuvchilarda tireoid gormonlari konsentratsiyasi darajasi qondagi zamburug‘ hujayralari miqdoriga teskari proporsional bo‘ldi: ular 6000 dan 9000 gacha bo‘lganda T3 va T4 gormonlari miqdori pasaygan (T4-87,45%, T3-65,55%), qondagi zamburug‘ hujayralari miqdori 9000 dan 12000 gacha bo‘lganda esa tireoid gormonlari miqdori sezilarli darajada pasaygan (T4-59,4%, T3-79,45%). Qondagi zamburug‘ miqdori 9000-1000 bo‘lgan tekshirilgan guruhdan tashqari, TTG gormoni miqdori normadan sezilarli darajada og‘madi.

Qondagi zamburug‘ miqdori yuqori bo‘lgan bemorlarda (qondagi zamburug‘ hujayralari miqdori 12000 dan ortiq) qalqon bez funksiyasining eng yaqqol o‘zgarishlari aniqlandi. Bu guruhdagi tekshirilganlarda T3 va T4 gormonlari miqdori

ishonchli darajada past bo‘ldi (mos ravishda 58,4 va 72,93), TTG gormoni miqdori esa norma doirasida o‘zgarib turdi.

Tadqiqotlar natijasida qondagi Candida turidagi yetilgan zamburug‘ hujayralari miqdori oshgani sari qalqon bez gormonlari miqdori pasayishi aniqlandi, bunda qondagi tireoid gormonlari miqdorining pasayishi qondagi yetilgan zamburug‘ hujayralari miqdori oshgani sari yaqqolroq kuzatildi.

XULOSALAR.

Shu tariqa, bizning tadqiqotlarimizda qondagi Candida turkumiga mansub yetilgan zambrug‘ hujayralarining normal miqdori qalqonsimon bezning funksional faolligi bilan bog‘liq edi. Qalqonsimon bezning funksional faolligining pasayishi, odatda vaqtinchalik immunitet tanqisligi bilan birga kelib, qondagi zambrug‘ hujayralari miqdorining ortishiga va, balkim, qondagi kandidamikoz infeksiyasi shaklida klinik namoyon bo‘lishiga olib keldi. Qalqonsimon bezning disfunksiyasi, ko‘pincha yod yetishmasligi tufayli boshqa patologiyalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi haqidagi taxmindan kelib chiqib, immuniteti pasaygan kandidoz tashuvchilarda klinik jihatdan yaxshi namoyon bo‘lgan kandidamikoz rivojlanish xavfi yuqori ekanini taxmin qilish mumkin. Bunda zambrug‘ metabolitlarining organizmga toksik-allergik ta’siri asosiy kasallikning kechishini sezilarli darajada og‘irlashtirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Akbarovich, A. A., Murodullayevich, T. O., & Shodievich, S. H. (2023). OG ‘IZ BO ‘SHLIG ‘I SHILLIQ QAVATLARINING ZAMBURUG ‘LI KASALLIKLARIDA EOZINOFIL KO ‘RSATKICH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY*, *1*(6), 116-119.
2. Giyosovna, S. D., Maqsudovna, O. G., Isrofilovna, M. N., & Shodiyevich, S. H. (2023). BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(7), 1154-1162.
3. Mardanovna, I. M., & Shodievich, S. H. (2023). GEMOLITIK ESHERIXIYALARNING ADGEZIVLIK XOSSALARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY*, *1*(6), 198-202.
4. Sh, S. X., & Sa’dinov, P. O. (2014). Rol gemoliticheskix esherixiy v strukture ostrых kishechnых infeksiy u detey i effektivnost primeneniya probiotikov v ix lechenii.

5. Shayqulov H. S. et al. DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 20-24.
6. Shayqulov, H. S., & Mamarasulova, N. I. O‘TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARNING AJRALISHI.«. *МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ*, *103*.
7. Shodievich, S. H., & Ubaydullaevich, N. D. (2023). BAKTERIAL ICHBURUG ‘BILAN OG ‘RIGAN BEMORLARNING IMMUN KO ‘RSATKICHLARIDAGI AYRIM O ‘ZGARISHLAR. GOLDEN BRAIN, 1 (5), 163–167.
8. Маматова, М. Н., & Шайкулов, Х. Ш. (2024). Применение реакции непрямой гемагглютинации для определения антител к стафилококковому токсину. *Журнал «Экономика и социум*, (7), 122.
9. Маллаходжаев, А. А., Шамсиддинова, М. Ш., Жамалова, Ф. А., & Шайкулов, Х. Ш. (2021). ГЕМОЛИТИЧЕСКИЕ ЭШЕРИХИИ В ЭТИОЛОГИИ КИШЕЧНЫХ РАССТРОЙСТВ У ДЕТЕЙ И ГЕНЕТИЧЕСКОМ МЕХАНИЗМЕ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ. In *VOLGAMEDSCIENCE* (pp. 588-589).
10. Нарзиев Д.У., & Шайкулов Х.Ш. (2024). ТЕЧЕНИЕ ОСТРОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВЫДЕЛЕННОЙ МИКРОФЛОРЫ. Экономика и социум, (2-1 (117)), 1636-1642.
11. Шайкулов, Х. Ш. (2023). Antibiotikorezistent laktobakteriyalardan foydalanishning samaradorligi. *Молодой ученый.—2023*, *10*(457), 268-271.
12. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Изменению микробиоценоза кишечника при поносах у детей. *Молодой ученый.–2024*, *8*(507), 24-26.
13. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Макро-и микроэлементный состав крови у больных аллергическим дерматитом. *Молодой ученый.—2024*, *5*(504), 61-63.
14. Шайкулов, Х. Ш. (2024). Состояние свертывающей и антисвертывающей системы крови у здоровых людей. *Молодой ученый.—2024*, *5*(504), 59-61.
15. Шайкулов, Х. Ш., & Исокулова, М. М. (2023). Характеристика энтеропатогенных кишечных палочек, выделенных у детей раннего возраста. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 489-494.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038498

ZAMONAVIY DUNYODA ROBOTOTEXNIKANING O‘RNI

Qahhorova Maftuna Baxtiyor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi.

ANNOTASIYA

Bugungi kunda yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini rivojlantirish yo‘lida qator yangilanishlar qilinayapdi. Bu yangilanishlar kundan-kun hayotimizga tadbiq etilmoqda. Barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda. Kompyuter dasturlari bilan boshqariladigan dastgohlardan yurtimiz sanoatida keng foydalanilmoqda. Inson hayoti uchun xavfli yoki og‘ir bo‘lgan sohalarda ham kompyuterga asoslangan robotlardan foydalanilmoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy dunyoda robototexnikaning o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Многие нововведения, направленные на улучшение экономического и социального состояния нашей страны, внедряются в нашу повседневную жизнь. Во всех отраслях внедряются современные технологии. В частности, на производственных предприятиях широко используются станки, управляемые компьютерными программами. В данной статье представлена информация о роли робототехники в современном мире.

Many innovations aimed at improving the economic and social condition of our country are being introduced into our daily lives. Modern technologies are being introduced in all industries. In particular, machine tools controlled by computer programs are widely used in manufacturing enterprises. This article provides information about the role of robotics in the modern world.

Kalit so‘zlar:

Robototexnika, robot, mashinasozlik, elektrotexnika, informatika, texnologik jarayon, kasbiy faoliyat, innovatsiya, avtomatlashtirish, ta’lim, ilmiy tadqiqot.

Робототехника, робот, машиностроение, электротехника, информатика, технологический процесс, профессиональная деятельность, инновации, автоматизация, образование, научные исследования.

Robotics, robot, mechanical engineering, electrical engineering, computer science, technological process, professional activity, innovation, automation, education, scientific research.

Biz avtomatlashtirish tezligi ta’sirchan bo‘lgan zamonda yashayapmiz. Hozira avtomatlar odamlar bajaradigan vazifalarni tezroq va yaxshiroq bajaradi. Ba’zilar ko‘plab faoliyat sohalarida, ayniqsa ishlab chiqarish va sanoatdagi jarayonlarning to‘liq avtomatlashtirilishi ishsizlikning sababi hisoblanadi, deya shikoyat qilishadi. Aslida, bu hamma uchun yangi imkoniyatlar to‘lqini. Ushbu qurilmalar qanchalik ko‘p funksional bo‘lmasin, ularni ishlab chiqish, takomillashtirish, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kerak, shuning uchun buni amalga oshiradigan mutaxassislarga ehtiyoj bor.

Robototexnika - bu mashinasozlik, elektrotexnika va informatika fanlarini birlashtiradigan soha. Bu sohada talabalar robotlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish, shuningdek ularni boshqarish, fikrlar va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun kompyuter tizimlarini o‘rganadilar.

Robot so‘zining etimologik kelib chiqishi Chexiya tilidan ko‘proq yoki kam emas. Xususan, ikki atamaning birlashmasida: robota "majburiy mehnat" sifatida belgilanishi mumkin va ichida rabota "servitut" bilan sinonim. Xuddi shu tarzda, shuni ta’kidlash kerakki, unga ko‘proq yoki kamroq murojaat qilingan birinchi marta 1920 yilda yozuvchi Karel Kapekning "Rossum universal robotlari" nomli asarida bo‘lgan.

Zamonaviy dunyoda robototexnika hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. U bir qator sohalarda qo‘llaniladi va turli xil imkoniyatlar yaratadi. Quyida shular haqida keltirib o‘tamiz:

Sanoat: Robototexnika ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda keng qo‘llaniladi. Ular yig‘ish, paketlash, va sifat nazorati kabi vazifalarni bajarish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Tibbiyot: Robotlar jarrohlik operatsiyalarini aniqlik bilan amalga oshirishda, bemorlarni parvarish qilishda va diagnostika jarayonlarida yordam beradi. Masalan, da Vinci jarroh robotlari murakkab jarrohlik amaliyotlarida qo‘llaniladi.

Transport va logistika: Avtomatlashtirilgan transport vositalari (masalan, o‘z-o‘zini boshqaradigan avtomobillar) va ombor robotlari yuklarni tez va samarali tashishda yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi: Robotlar ekinlarni parvarishlash, yig‘im-terim qilishda qo‘llaniladi, bu esa qishloq xo‘jaligi jarayonlarini samarali qilishga yordam beradi.

Xavfsizlik: Robotlar xavfsizlik nazorati va monitoring jarayonlarida ishlatiladi. Ular xavfli hududlarda insonlar o‘rnini bosish orqali xavfsizlikni oshiradi.

Kundalik hayot: Uy robotlari (masalan, tozalash robotlari, oshxona robotlari) odamlarning kundalik ishlarini yengillashtirishga yordam beradi.

Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar: Robototexnika ta’lim jarayonida foydalanilmoqda. Talabalar uchun dasturlash va muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishda robotlar yordam beradi.

Robototexnikaning rivojlanishi odamlar hayotini osonlashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishda davom etmoqda. Biroq, shu bilan birga, bu texnologiyalarning etik va ijtimoiy jihatlarini ham inobatga olish zarur, chunki ularning ish joylariga ta’siri va ijtimoiy hayotga ta’siri muhim masalalardir.

Har bir sohada robototexnika innovatsiyalar va yangi imkoniyatlar yaratishda davom etmoqda, bu esa inson hayotini yengillashtirishga va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Robototexnika ko‘plab sanoat tarmoqlarida keng tarqalgan. Quyida asosiy sanoat tarmoqlarini keltirib o‘tamiz:

Sanoat ishlab chiqarishi:

- Avtomobil sanoati: yig‘ish liniyalarida robotlar avtomatlashtirilgan ishlarni bajaradi.
- Elektronika: komponentlarni yig‘ish va sifat nazorati jarayonlarida qo‘llaniladi.

Tibbiyot:

- Jarrohlik: jarrohlik robotlari murakkab operatsiyalarni bajarishda ishlatiladi.
- Reabilitatsiya: bemorlar uchun yordamchi robotlar va protezlar.

Qishloq xo‘jaligi:

- Ekinlarni parvarish qilish, yig‘im-terim va pestitsidlarni tarqatishda robotlar keng qo‘llaniladi.

Transport va logistika:

- O‘z-o‘zini boshqaradigan avtomobillar va dronlar.
- Ombor robotlari yuklarni tashishda va tartibga solishda yordam beradi.

Xavfsizlik:

- Xavfsizlik robotlari va nazorat dronlari xavfsizlikni ta’minlashda qo‘llaniladi.

Konsalting va xizmat ko‘rsatish:

- Mijozlarga xizmat ko‘rsatish robotlari, masalan, oshpaz robotlari va qabulxona robotlari.

O‘yin-kulgi va ko‘ngilochar sanoat:

- O‘yin robotlari va virtual reallik tizimlari.

Qurilish:

- Qurilish robotlari materiallarni ko‘tarish va tayyorlashda yordam beradi.

Energetika:

- Energiya ishlab chiqarish va nazorat qilish jarayonlarida robotlar foydalaniladi, masalan, quyosh panellari va yuqori kuchlanishli elektr stantsiyalarida.

Keng kommunikatsiya va IT:

- Dasturiy ta’minot ishlab chiqish va testlash jarayonlarida avtomatlashtirish.

Robototexnika har bir sanoat tarmog‘ida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Robototexnika bir qator foydalar keltiradi, bu esa uning turli sohalarda qo‘llanilishini ta’minlaydi. Quyida robototexnikaning asosiy foydalari keltirilgan:

Samaradorlikni oshirish:

- Robotlar tez va aniq ishlash imkonini beradi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi.

Xatolarni kamaytirish:

- Robotlar bir xil vazifalarni takroriy ravishda bajaradi, bu esa inson xato qilish ehtimolini kamaytiradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish:

- Avtomatlashtirish jarayonlari ishchilar sonini kamaytirishi, shuningdek, ish vaqtini tejashi mumkin.

Xavfsizlikni ta’minlash:

- Robotlar insonlar uchun xavfli bo‘lgan vazifalarni (masalan, yuqori temperaturali yoki kimyoviy moddalar bilan ishlash) bajarishi mumkin.

Yangi imkoniyatlar yaratish:

- Robototexnika innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi, yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni osonlashtiradi.

Doimiy ishlash:

- Robotlar 24/7 rejimida ishlay oladi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligini ta’minlaydi.

Muammolarni tezda hal etish:

- Robotlar tezda muammolarni aniqlash va hal qilishga qodir, bu esa jarayonlar samaradorligini oshiradi.

Ish joylarini yangilash:

- Robotlar ko‘plab oddiy va takroriy ishlarni bajaradigan xodimlarni yangi, yuqori malakali ish joylariga o‘tishga yordam beradi.

Ta’lim va trening:

- Robototexnika ta’lim sohasida yangi ko‘nikmalarni o‘rganishga yordam beradi, talabalar uchun amaliy tajribalar yaratadi.

Ekologik samaradorlik:

- Robotlar energiya va resurslarni samarali ishlatish orqali ekologik ta’sirni kamaytirishga yordam beradi.

Robototexnika, shuningdek, rivojlanayotgan texnologiyalar va innovatsiyalar orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Biroq, bu texnologiyalarning etik va ijtimoiy jihatlarini ham e’tiborga olish zarur.

Demak robototexnika - bu og‘ir, zerikarli va xavfli ishlarni bajarishda odamni almashtirish uchun murakkab texnologik jarayonlar va operatsiyalarni, shu jumladan, deterministik bo‘lmagan sharoitlarda olib boriladigan ishlarni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan robotlar va robot tizimlarini yaratishga yo‘naltirilgan fan. Kasbiy faoliyat ob’ekti robotlar va ishlab chiqarish uchun ham, noishlab chiqarish maqsadlar uchun robotik tizimlar, shuningdek, bunday tizimlarni boshqarish, ularning dizayni va ishlashini boshqarish uchun zarur dasturiy ta’minot va algoritmik yordamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Филиппов В.И. Методика исползавания робототехники для формерования унверсалных учебных действий у обучающихся во внеурочной деятелности по информатике.М.: 2020.
2. Imamova Shafoat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER’S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
3. Imomova Shafoat Mahmudovna. TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 14 | 2023, C.1075-1081
4. Imomova Shafoat Mahmudovna, Mardonova Maftunabonu Abrorovna. CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISHNING ANIQ USULLARI VA TADBIQLARI// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 2 | 2024, C.397-404
5. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// NATURALISTA CAMPANO Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.
6. Филиппов В.И. Методика исползавания робототехники для формерования унверсалных учебных действий у обучающихся во внеурочной деятелности по информатике Дис.канд.пед.наук: М. 2009 – С 454.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038534

TABIIY INGREDIENTLAR ASOSIDA POVIDLO TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Saribayeva Dilorom Akramjanovna
Namangan muhandislik - texnologiya instituti
diloromsaribayeva@mail.ru,

Maxmudova Dildora Ulug‘bek qizi
Namangan muhandislik - texnologiya instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada ingredientlarning turlarini morfobiologok tavsifi, bioximik tarkibi va inson organizmi uchun foydali xususiyatlari, hamda ulardan foydalanib qayta ishlash sanoatida shifobaxsh mahsulotlar tayyorlash xususan “povidlo” tayyorlash texnologiyasi, uni uni foydali xususiyatlari va ahamiyati hamda iste’molchilarning povidlo mahsulotlariga ehtiyojini ma’lum miqdorda bo‘lsa ham qondirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *ingredient, konsentrat, assortiment, mahalliy mevalar, povidlo, kislotalilik darajasi, avitaminoz, vitaminlar.*

DEVELOPMENT OF A TECHNOLOGY FOR THE PRODUCTION OF JAM BASED ON NATURAL INGREDIENTS

ABSTRACT

The article provides a morphobiological description of the types of ingredients, their biochemical composition and beneficial properties for the human body, as well as the preparation of medicines using them in the processing industry, in particular the “jam” technology. Preparation, its beneficial properties and significance, as well as the need of consumers for jam products in certain quantities should also be satisfied.

Keywords: *ingredient, concentrate, assortment, local fruits, jam, level of acidity, avitaminotic, vitamins.*

1.Kirish

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yangi korxonalarning barpo etilishi, assortimentning o‘zgarishi ehtiyojdan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Konservalangan mahsulot ichki bozorni to‘ldirish, qo‘shni mamlakatlarga eksport qilish uchun ishlab chiqilmoqda. Mahsulotning ayrim turlari Evropa bozoridan mustahkam o‘rin olgan va respublikamiz uchun yaxshi daromad keltirmoqda. Bular: tomatdan tayyorlangan pyure va pasta, bo‘laklab quritilgan tomat (pomidor), piyoz, o‘rik, olma, shaftoli; butun quritilgan o‘rik, olxo‘ri, uzum mevalaridir; shuningdek, olma, uzum, anor sharbati va kontsentratlaridir.

Yuqori sifatli konserva mahsulotlari ishlab chiqarish, xom ashyoning isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda xo‘jalik a’zolarining transport xarajatini kamaytirish maqsadida konserva korxonalari bevosita xo‘jalik hududida quriladi. Qayta ishlash chiqitlari xo‘jalikning o‘zida qoladi va chorvani boqishda foydalaniladi.

Korxonada ishga xo‘jalik aholisi jalb etiladi. Mahsulot assortimenti: meva va sabzavot sharbatlari, kompot va murabbolar, sabzavot va meva marinadlari, gazak konservalar, tuzlamalar va quritilgan mahsulotlardan iborat.

Organizmga zarur va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mavjud bo‘lgan barcha moddalarni shartli ravishda uch guruhga (odamning energiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan energetik moddalar; hujayralar va to‘qimalar tuzilishiga sarflanadigan plastik moddalar; almashinuv jarayonlarida qatnashadigan idora etuvchi moddalarga) bo‘linadigan bo‘lsa, shu moddalarning birinchi toifasi (uglevodlar va qisman yog‘) ham, ikkinchi toifasi (oqsil va mineral moddalar) ham, uchinchi toifasi (mikroelementlar, vitaminlar, fermentlar) ham bor deb xulosa qilinadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasining hozirgi bosqichdagi asosiy vazifalari: xom ashyo etishtiriladigan joylarda zamonaviy qayta ishlash tsexlari va zavodlarini barpo etish, dunyo bozorida konserva mahsuloti assortimenti va miqdori mavqeini mustahkamlash, kelajak uchun real istiqbol rejaga ega bo‘lishdir. Korxonaning rivojlanishi, uning rivojlanishini yuqori organlar tomonidan boshqarish mexanizmi shakllanishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Funksionala ingridentlar - tarifnomal moddalar, tabiiy manbalar, sog‘liq uchun foydali moddalar bo‘lib, asosiy guruhlari probiotiklar, oraliq mahsulotlar, bioaktiv birikmalar, vitaminlar, mineraller va ozuqa tolalari hisoblanib, ular biologik faol, hazmlanish darajasi yuqori, qabul qilish oson va sog‘liq uchun foydali bo‘lishi kerak. Ulardan foydalanish uchun yaxshi sifat va xavfsizlik standartlariga javob berish shart.

Bugungi kunda funksional ingredientlar keng tarmoq sohalarda foydalanilmoqda va turli kasallikalarni davolashda va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning asosi bo‘lib xizmat qilmqoda.

Ovqat sanoatida qo‘llanishi. Funksional ingridientlar oziq-ovqat mahsulotlarining ta’miga, konsistensiyasiga va saqlanish muddatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydali xossalarni oshirish. Ular odam salomatligiga foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan moddalarni qo‘shadi.

Yangi mahsulotlar yaratish. Funksional ingridientlar yangi oziq-ovqat va ichimliklar yaratishga yordam beradi.

Innovatsion yechimlar. Ular sanoat uchun yangi imkoniyatlar va mahsulotlar yaratishga yordam beradi.

Tabiiy ingredientlardan foydalanib kimyoviy mahsulotlar o‘rnini bosuvchi povidlo texnologiyasini ishlab chiqish muhimdir. Chunki hozirgi kunda kimyoviy qo‘shimchalar bilan boyitilgan mahsulotlar juda ham ko‘p. Bu esa inson salomatligiga salbiy ta’sir qilinishi natijasida aholi orasida ortiqcha vazn, qandli diabet, ayniqsa bolalarda kamqonlik, xotiraning pasayishi kabi turli kasalliklar soni yildan yilga ortib bormoqda. Buning oldini olish hamda kasalliklar sonini kamaytirish uchun albatta tabiiy xomashyodan tayyorlangan mahsulotlar iste’molini kengaytirmoq zarur. Bundan tashqari qishloq xo‘jalik mahsulotlaring mavsum davomida isrof bo‘lishining oldini olish muhim hisoblanadi. Pishib yetilgan mavsumiy mevalar vaqtida eksport qilinmasa yoki qayta ishlanmasa o‘zining biologik holati buziladi va iste’molga yaroqsiz holatga keladi. Buning oldini olish uchun esa ularni qayta ishlab quritish yoki konserva maxsulotlarini jumladan, (povidlo) tayyorlash zarur. Povidlo - ishqalangan meva va rezavor massasidan qand qo‘shib bug‘latib olingan mahsulot. U yangi yoki sulfitlangan xomashyo pure ko‘rinishida konservalangan YaTM dan tayyorlanadi.

1-rasm. Sanoatda ingredient olishda foydalaniladigan xomashyolar

Tabbiy ingredientlarnig normal nisbati tabiiy ekstrakt xom ashyosi ishlab chiqarishdagi asosiy xom ashyo bo‘lib, oziq-ovqat qo‘shimchalari, funksional oziq-ovqat va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Kimyoviy moddalarning nisbiy zaharliligi va ularning ishlab chiqarilishini kamaytirib uning o‘rnini bosuvchi tabiiy ekstraktlarni ko‘paytirib ommalashtirish muhim.

NATIJALAR

Povidlo tayyorlash uchun turli danakli xomashyo hamda klukva, olma, belli ishlatiladi. Odatda, povidlo biror bir yagona xomashyodan, ba’zan meva va rezavoriar aralashmasidan ishlab chiqariladi. Nok va sabzavot puresi qo‘shilmaydi. YaTM dan

povidlo ishlab chiqarishda u fini-shordan o‘tkaziladi, so‘ng ochiq apparatlarda 10÷15 daqiqa isitish usuli bilan sulfitsizlanadi, $S0_2$ miqdori 0,025 % ga tushiriladi. Tayyor povidlo tarkibida $S0_2$ miqdori 0,01%dan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

Agar pure nordon benzoy natriysi yoki sorbin kislotasi bilan konservalangan boTsa u holda konservant chiqarib tashlanmaydi.

Povidlo masallig‘i tayyor mahsulot konsistensiyasiga talab asosida tanlanadi. Mahsulot konsistensiyasi, o‘z navbatida, u qadoqlanadigan idishga bog‘liq. Bochka yoki bankalardagi povidlo quyuq, surtiladigan massa. Yashichikdagi povidloning konsistensiyasi shunchalik quyuqki, uni hatto pichoq bilan ham kesish mumkin.

Surtiladigan povidlo ishlab chiqishda, qand massasi bo‘yicha bir hissaga 1,25 hissa 11% quruq moddali pure qo‘shiladi. Konsentratsiyasi past bo‘lgan pure ll %li hisoblanadi.

Labaratoriya sharoitida tabiiy ingredientlarga asoslanib tayyorlangan konsentrat vitaminga boy bo‘lib, quvvat kamayganida va avitaminoz vaqtida yordam beradi, hamda immun tizimini va modda almashinuvini yaxshilaydi.

Konservalangan povidlo shifobaxshligi bilan keng tarqalgan. Bundan tashqari qiyom, jele, likyor, alkogolsiz ichimliklar, va boshqalarning ishlab chiqarilishida tabiiy ingredientlardan foydalanish ishlab chiqarilgan konsentratlarning o‘ziga xos ta’m berishi bilan ajralib turadi.

1-jadval

Olma, o‘rik oixo‘ri mevalaridan ingredientlar asosida “povidlo” tayyorlash usuli va sifat ko‘rsatkichlari.

Meva navla-ri	Mahsulot miqdori	Qandlilik darajasi, %	Kislotalilik darajasi, %	Suv sarfi	Qaynatish harorati, t^0C	Qaynash vaqti, min.	Qo‘shilgan mahsulot, gr	Tayyor povidlo, ml	Shirinlilik darajasi, ball.
Olma	1.0	18.6	2.3	1.0	100	30	700	600	8.1
O‘rik	1.0	15.7	2.3	1.0	100	30	800	600	6.8
Olxo‘ri	1.0	12.6	2.4	1.0	100	30	1000	600	5.2

Tadqiqot olib borish uchun, uch xil mevadan bir kilogrammdan ajratib olindi. Ajratib olingan maxsulot saralanib chiqindilardan tozalandi va tayyor maxsulot bir litr miqdorida texnologik suv qo‘yib 100 ºC haroratda10÷20 minut davomida qaynatildi.

MUHOKAMA

Qaynatilgan massa tindib mevaning turiga uninig tarkibi va qand va kislotalilik darajasiga qarab 700÷1000 gramm miqdorida shakar qo‘shib, qayta 100 C haroratda 10÷20 minut davomida qaynatilib, hosil bo‘lgan povidloni kichik sig‘imli sitirillangan idishlarga qadoqlandi. Tayyor bo‘lgan massamizni salqin va quruq joyda 8÷9 oy saqlash mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tabiiy ingredientlar asosida tayyorlangan povidloning kimyoviy tarkibi, tayyorlanish texnologiyasi, texnologik sxemasini, saqlash usullarini o‘rganish hamda ularni yanada takomillashtirish, hamda aholiga kimyoviy qo”shimchalarsiz odam organizmi uchun salbiy ta’sirga ega bo”lmagan salomatlik uchun foydali maxsulotlarni yetkazib berish muhim vazifa hisoblanadi. Tabiiy xomashyo istemolini ko‘paytirish va iqtisodiy samaradorlikga erishishdan iborat. Bunday tayyorlangan konsentratlar shifobaxshlik xususiyatlari va konservalangan maxsulotlarni ishlab chiqarishdagi sifat ko‘rsatkichlariga hamda iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta’sir etadi. Funksional ingridentlar oziq-ovqat sanoatida, farmatsevtika va kosmetika mahsulotlarida keng qo‘llaniladi. Ular oziq-ovqatlar va dorilarning foydali xossalarini oshirish, shuningdek, ularning sifatini yaxshilash uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va maxsus resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4901 sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig “O‘zbekiston Respublikasi xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4670 sonli qarori.

3. X.X.Xolitov, 3.X.Xabibov “O‘zbekistoning shifobaxsh o‘simliklari”. T.1991 й. 85-87 b.

4. Saribayeva D. A., Zokirova M. S., Xoldarova G. A. Development and analysis of medicine and natural beverages //International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. – 2021. – С. 31-36.

5. Е.П.Широков “Meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi”. M. 261-265 b.

6. Saribayeva D. A., Zokirova M. S. Study of the elemental and amino acid composition of ginger //Universum: technical science: electronic. nauchn. Journal. – 2021. – №. 11. – С. 92.

7. Починок, Х. Н. Методы биохимического анализа растений / Х. Н. Починок. – Киев: «Наукова думка», 1976. - 336 с

8. https://muslimaat.uz/namatak-foydalari.

9. Davlyatov A. A., Xudayberdiyev A. A., qizi Madaminova Z. T. Meva danaklari chaqilmasining granulometrik tarkibini tahlil qilish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 286-291.

10. Davlyatov A., Khudaiberdiev A., Khamdamov A. 664.34. 063.8 Physical-chemical indicators of plum oil obtained by the pressing method: physical-chemical indicators of plume oil obtained by the pressing method //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2024. – Т. 9. – №. 1. – С. 102-108.

11. Davlyatov A. et al. Physico-chemical properties of oil from plums and prospects for its use //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 486. – С. 02014.

12. Davlyatov A. A., Xudayberdiyev A. A. Olxo ‘ri mag ‘izidan sovuq presslash usulida yog ‘olish //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 315-320.

13. Khamdamov, A., Xudayberdiyev, A., Davlyatov, A., & Kadirov, A. (2023, June). Intensification final distillation process of vegetable oils using floating wooden nozzles. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

14. Mallabayev O., Saribayeva D. Scientific basis for the production technology of fruit lozenges (marshmallow) //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 8. – №. 2. – С. 74-79.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038552

UZLUKSIZ ISHLAYDIGAN OZUQA ARALASHTIRGICHLAR KONSTRUKSIYALARI TAHLILI

Shodiyev Shahriyor Nomoz o‘g‘li
doktorant, e-mail: shodiyevshahriyor13@gmail.com
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

Annotatsiya: *maqolada uzluksiz ishlaydigan ozuqa aralashtirgichlar bo‘yicha umumlashtirilgan tahlil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ozuqa, aralashtirgich, qopqoq, shnek, val, korpus, rama, motor, quvvat, spiral tasma, aralashma sifati.*

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda, qishloq xo‘jaligining o‘ta muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan chorvachilik tarmog‘ida ozuqalarni yedirishga tayyorlashda dunyodagi ilg‘or tajribalar hamda zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, chorvachilik tarmog‘ini iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘yimli ozuqa bilan oziqlantirish – chorva mollarining mahsuldorligini oshirishda, tirik vaznining o‘sishida, ozuqalardan tejamli foydalanishdagi (40% va undan yuqori) asosiy yo‘llaridan biri bo‘lib, rentabellikning o‘sishini ta’minlashi asoslab berilgan [1; 112-117-b., 2; 326-341-b., 3; 66-73-b.].

Ozuqa aralashmasini tayyorlashda eng oxirgi texnologik jarayon- bu davriy va uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlarda ozuqa komponentlarini aralashtirishdir.

Ozuqa aralashmasini tayyorlashga mo‘ljallangan uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlarning amaldagi mavjud konstruksiyalarini ishchi qismi tuzilishiga ko‘ra quyidagilarga ajratish mumkin: barabanli, barabanli-qorigichli va qorigichli.

Ikki valli uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich asosan yarim silindrik ko‘rinishdagi korpus 4, uning ichiga qanotchalari shneksimon qilib joylashtirilgan ikkita val 2 o‘rnatilgan. Vallar bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda aylanma harakat qiladi. Ozuqalar vallarning qanotchalari yordamida bir necha marta yuqoriga uloqtirish va uloqtirilgan massaning aralashtirgich qopqog‘i 3 dan urilib qaytishi natijasida ozuqa zarrachalarining tartibsiz ravishda harakatlanishi hisobiga aralashadi va chiqarish bo‘g‘izi 5 tomon yo‘naltiriladi. Vallarga qanotchalar 45° burchak ostida o‘rnatilgan bo‘lib, ular xuddi shnekni qirqib chiqilganday ko‘rinishda bo‘ladi. Aralashtirgich

quyidagi parametrlarga ega: umumiy uzunligi-2,8 m; ishchi uzunligi-1,8 m; vallarning aylanish chastotasi-275 min^{-1}. Aralashmaga kiritilgan nazorat qilinuvchi komponentning notekislik darajasi maydalangan dag‘al ozuqa, silos va ildizmevali ozuqalar bilan kombikorma va oziqaviy suyuqliklarni aralashtirganda mos holda 18,9; 26,7; va 26,9 % ni tashkil etgan, aralashtirgichning ish unumi esa mos holda 23,8; 29,4 va 39,1 t/s bo‘lgan [4; 133-156-b., 5; 83-84-b.] (1-rasm).



1- kiritish bo‘g‘izi; 2 –qanotchali val; 3 –qopqoq; 4 – korpus; 5 –chiqarish bo‘g‘izi

1-rasm. C-30 ikki valli aralashtirgich sxemasi

Bunday turdagi aralashtirgichlardagi asosiy kamchilliklardan biri ishchi organning yuqori qismida aralashtirish jarayonini jadallashtirib beradigan fazoviy bo‘shliq yo‘qligidir.

Kombinatsiyalashgan ishchi organli aralashtirgichlarni universal aralashgichlar guruhiga kiritish mumkin. Bunga misol qilib biter-shnekli aralashtirgichni keltirish mumkin (2-rasm).

Aralashtirgichning konstruktiv ahamiyati shundaki, ikki turdagi ishchi organ uzluksiz shnekdan 3 va kurakchali biterdan 6 tashkil topganligi bo‘lib, ular bir tomonga qarab aylanma harakat qiladi. Bunda ularning harakatlanish xududlari bir-birini kesib o‘tmaydi. Ishchi organlarning harakatlanishi alohida-alohida yuritmalarda bo‘lganligi, berilayotgan ozuqa turlarining fizik-mexanik xususiyatiga qarab ishchi organlarning mos bo‘lgan rejimini tanlash imkoniyatini beradi.

Aralashtirgichning ishlash prinsipi quyidagicha: oldindan tayyorlangan (maydalangan) ozuqalar uzluksiz ravishda(oqimli) yuklash bo‘g‘izi orqali shnekga uzatiladi. Shnekga tushishi bilan ular aralashtirgich korpusi bo‘yicha bo‘ylamasiga siljitiladi hamda biter joylashgan qismiga uloqtiriladi. Uloqtirilgan ozuqa massasi biterga tushishi bilan markazdan qochma kuch ta’sirida aralashtirgichning ichki sirti bo‘yicha harakatlanib yana shnekga qaytib tushadi va qaytadan yangi ozuqa bilan biterga uzatiladi.



1 – kiritish bo‘g‘izi; 2 – korpus; 3 – shnek; 4 –chiqarish bo‘g‘izi; 5 – oqim bo‘lgich-yo‘naltirgichli qopqoq; 6 –qanotli biter

2-rasm. Kombinatsiyalashgan ishchi organli (biter - shnekli) universal aralashtirgich sxemasi:

Aralashtirgich qopqog‘ining ichki sirtida oqim bo‘lgich-yo‘naltirgichi (talab bo‘yicha uning yo‘nalishini o‘zgartirish mumkin) 5, ozuqa massasi oqimini qismlarga bo‘lib, aralashtirish jarayonini jadallashishiga yordam beradi. Ozuqa massasining ishchi organlar o‘rtasida bir necha bor almashishi natijasida ozuqalarning aralashish xususiyati yaxshilanadi. Ozuqa aralashmasini tayyorlashda aralashtirgich ish unumi yirik shoxli chorva mollari uchun shnekning aylanish chastotasi 200-210 min^{-1}, biterniki 500 min^{-1} bo‘lganda 20-22 t/s ni tashkil etadi [4; 133-156-b.].

G. G. Musayelyans va E. M. Pogosyanlar [6; 47-51-b.] tomonidan taklif etilgan aralashtirgich kiritish va chiqarish bo‘g‘izlariga ega bo‘lgan korpusdan, navbatma-navbat bir qadamga uzilgan ikki kirimli shnek va qaytaruvchi plastinkalarga ega bo‘lgan qopqoqdan iborat (3-rasm).

Aralashtirgich korpusi kiritish bo‘g‘izi tomonidan sharnirli va chiqish bo‘g‘izi tomonidan shnekli mexanizm orqali ramaga mahkamlangan. Shneklardagi navbatma-navbat bir qadamga uzilgan qismining mavjudligi ozuqalar oqimining qisqa vaqtga bo‘lsada navbatma-navbat uzilishini ta’minlaydi.



1 – yuklash bo‘g‘izi; 2 – qaytargichli qopqoq; 3 – shnek; 4 – elektrodvigatel; 5 – chiqarish bo‘g‘izi; 6 – vintli rostlash mexanizm; 7 – rama; 8 – korpus

3-rasm. O‘ram qadami uzilishli shnekli aralashtirgich sxemasi

To‘xtab qolgan ozuqa oqimi keyingi qismi bilan birgalikda ilgarilanma va aylanma harakat qiladi. Ozuqalar shnek ta’siridan chiqish vaqtida yuqoriga qarab uloqtiriladi. Shnekdan uloqtirilgan ozuqa massasi qaytargich plastinkalariga ega bo‘lgan qopqoqqa borib o‘riladi. Qaytargichlar qopqoq tekisligiga nisbatan ma’lum burchakda joylashtirilganligi sababli unga kelib urilgan ozuqa massasini chiqish bo‘g‘izi tomonga yo‘naltiriladi. Natijada shnekdan uloqtirilgan ozuqa komponentlari shnek ta’siridan chiqqandan keyin ham aralashish bilan birga chiqarish bo‘g‘izi tomon harakatlanishda ham bo‘ladi.

Aralashtirgich quyidagi konstruktiv va texnologik parametrlarga ega: ishchi uzunligi 2 m, ikki kirimli shnek diametri 0,4 m, shnek o‘rami qadami 0,4 m, shnek uzilish oralig‘i 0,4 m, shnekning aylanish chastotasi 180-225 min^1, massasi 640 kg. Aralashmaning bir tekisligi quyidagicha: senaj bilan somon 90,21-94,62 %; senaj bilan paxta chigiti qobig‘i(shulxa) 90,7-93,9 %; senaj bilan kombikorma 88,38-93,8 %; pichan bilan somon 88,2 % [15; 83-84-b.].

Boshqa bir uzluksiz ishlaydigan shnekli aralashtirgich [16; 49-51-b.] kojuxi pastki qismi yarim konuslarni ketma-ket biriktirilgan ko‘rinishda va yon tomon 5 lardan tashkil topgan (4-rasm).

Korpusda ko‘p kirimli shnek 3 o‘rnatilgan, shnek o‘ramlari bir qadam uzunligida navbatma-navbat uzilgan bo‘lib, bir-biriga nisbatan 180° ga siljitilgan. Shnekning har bir o‘rami radiusi kichik tomoni chiqish bo‘g‘izi tomonga kichiraytirilib borilgan, ya’ni konus ko‘rinishida yasalgan. Oldingi ko‘rib o‘tilgan konstruksiyalar kabi bu aralashtirgich ham qaytargichli qopqoq bilan jihozlangan hamda kiritish 1 va chiqarish 4 bo‘g‘izlariga ega.



1 – kiritish bo‘g‘izi; 2 – qaytargichli qopqoq; 3 – shnek; 4 – chiqarish bo‘g‘izi; 5 – korpus

4-rasm. O‘ram diametri o‘zgaruvchan shnekli aralashtirgich

Bu aralashtirgichning asosiy afzalliklaridan biri aralashtiruvchi organ sifatida ikki kirimli, o‘ramlari navbatma-navbat uzilishga ega bo‘lgan shnek olinganidadir. Bunday ishchi organ boshqa ko‘rinishdagi ya’ni kurakchali yoki oddiy shnekli ishchi organlarga nisbatan yuqori sifatli ozuqa aralashmasini tayyorlashni ta’minlaydi.

Bugungi kunda ozuqa aralashmalarini tayyorlashda xorijiy davlatlarning firmalari va kompaniyalari tomonidan bir necha turdagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlar ishlab chiqarilmoqda [7; 8; 9; 10; 405-407-b., 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17].

Italiyada WBH tipidagi gorizontal shnekli uzluksiz ishlaydigan bir valli aralashtirgichi [8] yuqori sifatli aralashmalarni olishga mo‘ljallangan (5-rasm). Aralashtirgichning silindrsimon korpusi yon tomoniga bir tomoni sharnerli biriktirilgan ikkinchi tomoni qisqichli bo‘lgan qopqoq mavjud. Aralashtirgichning ishchi vali kurakchalar bilan jihozlangan. Valga kurakchalar tutgich bilan o‘rnatilgan bo‘lib, bu kurakchalarni ehtiyojga qarab ma’lum burchak ostida sozlanishini ta’minlaydi.

5-rasm. WBH tipidagi gorizontal shnekli uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich

Germaniyaning Gericke kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan GCM tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich keng assortimentdagi kukunlar, bo‘laklar, granulalar va yopishqoq mahsulotlarni aralashtirish uchun mo‘ljallangan [18]. Aralashtirgich U-shaklidagi yoki silindrsimonli aralashtirish kameralaridan iborat. GCM uzluksiz aralashtirgichlarida radial va o‘qiy aralashtirishning eng maqbul kombinatsiyasi mavjud. GCM arlashtirgichi aralashtirish kamerasida ozuqa aralashmasining bo‘lish vaqti boshqarilishi xususiyati bilan ajralib turadi (6-rasmlar).

6-rasm. GCM tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich

Xitoyning Shandong Dongtai Machinery Manufacturing kompaniyasi tomonidan 100L rusumli uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlar (7-rasm) ishlab chiqariladi [13]. Ular gorizontal ikki spiralli uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlar bo‘lib, quruq kukunli va sochiluvchan ozuqalarni suyuqlik bilan aralashtirishga mo‘ljallangan.



7-rasm. 100 L tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich

Xitoyning **SHANGHAI Shengli Machinery Co., Ltd** kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan CM tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichi [13] sochiluvchan va granula ko‘rinishidagi materiallarni aralashtirish uchun mo‘ljallangan (8-rasm).

Ish unumi- 5-200 m^3/s, dvigatel quvvati 3-200 kVt/s, umumiy hajmi 0,3-30 m^3. CM seriyali uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichi quyidagi tiplarda ham ishlab chiqariladi: CMS (bir valli) uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich yoki uni konveyyer sifatida ham foydalanish mumkin va CMD (ikki valli) kurakli uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich sifatida foydalaniladi.



8-rasm. CM tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlar

Rossiyaning **«Биоэнергия и К»** kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan «Beep» uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichi [20] asosiy ozuqa komponentlari, oqsil va vitamin qo‘shimchalari, premikslar va ularning aralashmalarini oqimli aralashtirish uchun mo‘ljallangan (9-rasm).

Aralashtirgichning talab qilinayotgan quvvati - 3 kVt, ish unumdorligi 5 t/soat tashkil qiladi. Shneklar podshipniklarga mahkamlangan ikkita valdir. Pichoqlar sterjenlar, shayba va gaykalar yordamida vallarga o‘rnatiladi. Ularni shayba ichidagi rostlovchi uyalar orqali shnek o‘qiga nisbatan har qanday burchak ostida o‘rnatish mumkin. Komponentlar harakat yo‘nalishi bir-biriga teskari aylanadigan ikkita gorizontal shneklar bilan aralashtiriladi.



9-rasm. Beep-uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichi va uning ishchi organlari

E. U. Eshdavlatov tomonidan taklif etilgan aralashtirgich kiritish va chiqarish bo‘g‘izlariga ega bo‘lgan korpusdan, navbatma-navbat bir qadamga uzilgan ikki kirimli shnek va qaytaruvchi plastinkalarga ega bo‘lgan qopqoqdan iborat (10-11-rasmlar).



10-rasm. Uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich.
1 – rama; 2 – korpus; 3 – kiritish bo‘g‘isi; 4 – qopqoq; 5 – motor-reduktor;
6 – himoya qobig‘i; 7 – chiqarish bo‘g‘izi.



11-rasm. Uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichning konstruktiv sxemasi
1 va 8 –yuritmali shlyuzlar; 2 – bo‘ylama qaytargichlar; 3-bug‘ uzatish quvuri; 4 – motor-reduktor; 5-qopqoqning ishchi sirti; 6 –suyuqlik purkagich;
7 – bug‘ taqsimlagich; 9-aralashtirgich korpusi; 10-shnek.

Aralashtiruvchi ishchi organ sifatida ikki kirimli o‘ramlari navbatma-navbat bir qadam uzunligida uzilgan shnekning umumiy ko‘rinishi 11-rasmda keltirilgan. Oldingi olib borilgan tahlillarimiz natijalariga ko‘ra uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlarda, kurakchali yoki o‘ramlari butun shnek(shnek)ga nisbatan bunday ishchi organda aralashtirish sifati birmuncha yuqori ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan [21; 68-b,115-b.].

Yuqoridagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgichlar tahlillaridan kelib chiqqan holda maydalangan dag‘al va shirali ozuqalar bilan kombikormani hamda ozuqa aralashmasiga kam miqdorda qo‘shiladigan ozuqa qo‘shimchalarini aralashtirishda texnologik jarayonni oqimli usulda bajarilishini, energiya va resurstejamligini, yuqori ish unumi va sifatini taminlaydigan hamda aralashmaga zarur vaqtda issiqlik va suyuqlik kiritish bilan ishlov beradigan uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich ishlab chiqish, uning parametr va ish rejimlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligida mashinasozlik sohasi ilmiy-texnikaviy bazasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3117-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4243-sonli Qarori.
4. Д https://www.farfly.com/shop/fld-ribbon-mixer-1.
5. ЙДЛҲ 100Л Нержавеющая стал промышленный горизонталный ленточный смеситель порошковый смеситель https://www.alibaba.com/product-detail/YDLH-100L-Stainless-Steel-Industrial-Horizontal1600679455637.html?spm=a2700.7724857.0.0.84b4a09aNvynsM&s=p.
6. Smesiteli Infini-Mix™ production never stops https://www.continuous-mixing.com/
7. Непрерывное смешивание порошков, гранул и жидкостей https://www.gerickegroup.com/continuous-mixer-gcm.
8. Химическая техника и оборудование/ Смесителное оборудование. Шандонг Донгтаи Мачинерй Мануфастуринг Со., Лтд. Горизонталный

Ленточный Блендер с сухой пудрой 100 л до 10000 л https://russian.alibaba.com/p-detail/Industrial-1600341364934.html?spm=a2700.details.0.0.60912863tf2C1G

9. Смеситель непрерывного действия (АМК) https://www.amixon.com/en/products/continuous-mixer. Кукта Г.М. Машины и оборудование для приготовления кормов. - М.: Агропромиздат, 1987.- 303 с.

10. Мусаелянц Г.Г., Погосян Э.М. Исследование смесителя кормов непрерывного действия. – «Проблемы создания оборудования кормоцехов». Тезисы докладов научно-технической конференции. – Вилнюс: 1980. - 157 с.

11. Мусаелянц Г.Г., Думикян Х.О. К вопросу определение производителности шнекового смесителя кормов непрерывного действия. – «Известия сельскохозяйственная наук». Научно-технический журнал MSX АрмССР, Эреван, 1983. № 2. С. 49-51.

12. Оптималный смеситель кормов для крупного рогатого скота, птицы, свиней и т. п. https://www.amixon.com/ru/.

13. https://www.bmel.de/SharedDocs/Downloads/DE/Tiere/Futtermittel/-Leitfaden-Arbeitsgenauigkeit.html).

14. Основные преимущества горизонталного смесителя кормов http://www.sportoboz.ru/2019/06/30/osnovnye-preimuschestva-gorizontalnogo-smesitelya-kormov.html.

15. Технологическое оборудование и поточные линии предприятий по переработке зерна: учебник / Л.А.Глебов, А.Б.Демский, В.Ф.Веденев, А.Э.Яблоков, I и III части подред. Л.А.Глебова, II част подред. А.Б.Демского. — М.: Дели принт, 2010.—696 с.

16. Горизонталный смеситель АВА XTK/XTK https://www.bhs-sonthofen.com/en/process-technology/machines/mixers/horizontal-mixer.

17. Ленточный смеситель ФЛ

18. Смеситель от GERICKE https://perryvidex.eu/product/42-cuft-ss-gericke-mdl-gcm1200-L1459-02

19. WLDH- tipidagi uzluksiz ishlaydigan aralashtirgich. https://russian.alibaba.com/p-detail/WLDH-1600516701273.

20. Смеситель кормов непрерывного действия «Веер» https://shmell174.ru/8-produktsiya.

21. Ozuqalar aralashmasini oqimli usulda tayyorlaydigan resurstejamkor texnik vositalarni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: E. U. Eshdavlatov. Diss. 1-238 b.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038560

ZARAFSHON-OLOY KAMARI NODIR VA KAMYOB METALLAR MA'DANLASHUVINING METOLLOGENIYASI

Bo'riev Sardor Sayfullaevich
QarMII, "Geologiya va konchilik ishi"
kafedrasi asisstinti.
burievsardor92@gmail.com

Eshturdiyev Temurbek Diyor o'g'li.
"Geologiya va konchilik ishi" talabasi

Annotatsiya: *Zarafshon-Oloy kamari nodir va kamyob metallar ma'danlashuvining metollogeniyasini o'rganishda bir qator taniqli olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan va ko'plab formatsiyalarni aniqlagan. Hozirda ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.Bu esa yangi konlarni ochish uchun kegusida zamin bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Sheyelitli ma'danlar, magmatizm, intruziyalar, mineral assotsiatsiyalar, metallogeniya, formatsiyalar, provinsiyalar, Gidrotermal eritmalar, volfram, ekzokontakt, skarnlar.*

Annotation: *Zarafshan-Aloy n the study of the metallogeny of the mining of rare and Rare Metals, a number of well-known scientists have carried out scientific research and identified many formations. Scientific research is still underway.This would provide ground for the kegusi to open up new mines.*

Keywords: *shale deposits, magmatism, intrusions, mineral associations, metallogeny, formations, provinces, hydrothermal solutions, tungsten, exocontact, scarns.*

Dunyo amaliyotida, foydali qazilmalar geologiyasini o'rganish tarixining barcha davrlarida ma'danlashuvning magmatizm bilan genetik bog'liqligini hamda qamrovchi tog' jinslarini ma'danlashuvning shakllanishi va joylashuvidagi rolini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, butun dunyoda foydali qazilma konlarini izlab topish, qolaversa, yuqoridagi masalalarni hal etishda keng qo'llaniladigan usullardan biri mineralogik-geokimyoviy tadqiqot usullari hisoblanadi.

Endogen ma’danlashuvning magmatizm bilan aloqasiga oid masalalar ko‘plab tadqqiotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. H.M.Abdullayev tomonidan O‘rta Osiyoning endogen nodir metalli ma’danlashuvining intruziyalar bilan genetik aloqasi asoslab berilgan. Keyingi yillarda olib borilgan petrologik, mineral-geokimyoviy va b. tadqiqotlar bilan H.M.Abdullayev, H.N.Boymuhamedov, I.X.Hamroboyev kabi geolog olimlarning ko‘plab g‘oyalarining to‘g‘riligini tasdiqlaganlar.

Xususan, Chaqilkalon tog‘laridagi skarn-sheyelitli, skarn-sheyelit-sulfidli, kvars sheyelit-sulfidli formatsiya qatorlari granodioritli komplekslari bilan Chaqilkalandan Ziyovuddingacha sheyelitli ma’danli rayonni, keyinchalik esa nodir metalli metallogenik provinsiyani hosil qiladi. Zarafshon-Oloy kamari o‘rta va kechki karbonning burmalanish fazalari bilan bog‘liq. Tektonik harakatlar paleozoy oxirida ushbu egikliklarning tutashishiga va kechki gersin burmalanish zonalarining shakllanishiga olib kelgan. O‘zining metallogenik mohiyati bo‘yicha I.H.Hamroboyev (2021), «mufassal» nodir metalli va kamyob ma’danli ixtisoslanishning yetakchi ahamiyati bo‘yicha qo‘shni Zarafshon-Turkiston zonasiga o‘xshash. O‘rganilayotgan hudud Zirabuloq-Qoratepa qalay-volframli kamarga tegishli bo‘lib, uning doirasida skarn-ma’danli konlar va volfram, molibden, qalay, oltin kumushli va polimetalli ma’danlashish namoyon bo‘lishi aniqlangan. Ma’danli rayonlar va provinsiyalarda endogen ma’danlashishning joylashish qonuniyatlarini aniqlashda H.N.Boymuhamedov (1987) tomonidan endogen ma’danlashish joylashishining to‘rtta turi ajratilgan: o‘choq-zonalli, kamarsimon, tugunli va karkas (qobirg‘a)-tugunli. Joylashishning o‘choq-zonalli turi konlarning skarn-magnetitli, skarn-sheyelitli, skarn-molibdenit-sheyelitli, skarn-sulfid-oltin-misli, skarn-polimetalli, greyzen-nodir metalli va boshqa formatsiyalarini hosil qiladi. Ular makon va genetik jihatdan yirik batolitli granitoidli hosilalar bilan bog‘langan.

Kamarsimon joylashish turi nodir metalli-pegmatitli, gidrotermal qalay ma’danli-oltin ma’danli, simob-surmali va boshqa formatsiyalar uchun xosdir. Intruzivli massivlar va tegishli ma’danlashishlar ikkinchi va uchinchi tartibdagi burmalanish strukturalarga, shuningdek, yoriqlar zonasiga bo‘ysungan holda Zarafshon-Oloyning (geologik rivojlanish tarixidan kelib chiqqan holda) magmatizm xususiyati va metallogeniyasining o‘ziga xosligidan ma’danli kamarni hosil qilgan holda o‘nlab, ba’zan esa yuzlab chaqirimlarga cho‘zilib ketgan va foydali qazilmalarning ma’lum turlariga ixtisoslashgan. Joylashishning tugunli turi qo‘rg‘oshin, rux, mis, oltin, flyuorit va mineral xomashyoning boshqa turlarining skarn-gidrotermal, gidrotermal, vulkanogen-gidrotermal konlari uchun xosdir. Ma’danli rayonlarda, ular katta bo‘lmagan intruziyalar va turli tarkibdagi daykalar, vulqonli shtoklar va boshqa hosilalar bilan uzviy assotsiatsiyalangan. Karkas (qobirg‘a)-tugunli joylashish turi rangli, nodir va asil metallarning plutonogen-

gidrotermal va vulqanogen-gidrotermal konlari uchun xosdir. Ular chuqur yoriqlar, burmalanish strukturalarining kichik intruziyalari, daykalar hamda vulqonli markazlar va apparatlari joylashgan yoriqlar bilan kesishish uchastkalarida joylashgan. Volfram (sheyelit) metallogeniyasi.

Skarn-ma'danli konlarning sanoatbop turlari, ularning Zarafshon-Oloy metallogenik kamarining Zirabuloq-Ziyovuddin, Qoratepa va Chaqilkalan ma'danli komplekslariga muvofiq joylashgan Ingichka, Qoratepa, Yaxton va boshqa konlarda gistrukturaviy-teksturaviy o'ziga xosligi ko'rib chiqildi. Mineral tarkibi bo'yicha ma'danlarning asli sheyelitli va sheyelit sulfidli turlari ajratilgan. Oxirgisi orasida ma'danlarning sheyelit-molibdenitli, sheyelit-pirrotin-xalkopiritli, sheyelit-galenit-sfaleritli mineral assotsiatsiyalari ajralib turadi.

Sheyelitli ma'danlar hosil bo'lish shart-sharoitlari bo'yicha eng ertangi bo'lib, ular konlarda turli jadallikda namoyon bo'ladi. Asli sheyelitli ma'danlar ustida sheyelit-sulfidli yoki skarn-sulfid-nodir metalli ma'danlar joylashgan. Sheyelit-sulfidli turdagi ma'danlarda miqdoriy nisbatda sheyelit-pirrotin-xalkopiritli ma'danlar assotsiatsiyasi ustunlik qiladi, ikkilamchi o'zgargan zonalardan olingan monomineral xalkopiritda oltin, shliflarda esa ularning mayda yakka donachalari aniqlangan. Sheyelit-galenit-sfaleritli ma'danlarda kumushning aralashma elementlari miqdori galenitda 19 400 g/t. sfaleritda 100 g/t dan ortiq va 0,01-0,001% vismut va qalay aniqlangan. Bu kabi mayda tomirchalar, daykalarning skarn jismlarini kesib o'tgan holda, oltin ma'danlashish mavjud apogranitli ma'danlarni hosil qiladi[2, 3].

O'rganayotgan hudud (Zirabuloq-Ziyovuddin va Chaqilkalon-Qoratepa ma'danli komplekslar) doirasidagi cho'kindi-metamorfik jinslar orasida gidrotermal o'zgargan laporitlar, dioritli porfirlar, granodiorit-porfirlarning daykalari keng rivojlangan bo'lib, ularda kassiterit, molibdenit, sheyelit, oltin va boshqa minerallarning tarqoq hol-holliklari uchraydi. Kassiteritning sanoatbop darajadagi to'plami faqat o'zgargan lamprofirlarda (Lapas) aniqlangan. O'zgargan dolomitlarda (Qo'chqorli, Qizqo'rg'on, Qizil Gura, Kaltasoy va Lapas) kassiteritning katta ajralishlari aniqlangan. Ketmonchi, Qutchi, Qoramasjid va Burgut pegmatit tomirlarida kassiteritning katta bo'lmagan miqdorlari qayd etilgan[4].

Asosiy ma'dan qamrovchi va ma'anni nazorat qiluvchi strukturalar mayda va yirik uzilmali yoriqlar hisoblanadi va quyidagi qalay ma'danli formatsiyalar ajratiladi: pegmatitli, kassiterit-kvarsli, karbonat-kassiteritli formatsiyalar (Changali, Qarnob, Lapas, Oltinqazg'on va Karmana konlari), shuningdek, kvarsli tomirlar bilan bog'langan bir qator mayda namoyonlar. Qalay-surma metallogeniyasi. Zirabuloq tog'laridagi Kaltasoy ushbu ma'danlanish formatsiyasining yaqqol misoli hisoblanadi. U nordon tarkibli tog' jinslaridan tashkil topgan Zirabuloq intruziv massivining janubiy g'arbiy qismi tomon cho'zilgan. Ular bevosita ma'dan qamrovchi tog' jinslari

- o‘zgargan (skarnlangan, kvarslangan) dolomitlar, ohaktoshlar va slanetslardir. Ma’danli jismlar shtoklar va daykalarning ekzokontaktlari zonasida rivojlangan, tik tushuvchi darzliklarga bog‘langan uncha katta bo‘lmagan tomirlar bilan ifodalanadi. Gidrotermal eritmalardan ajralgan qo‘rg‘oshin surma ma’danlar yotqiziqlari, uzilmalarning antiklinal strukturaning gumbaz qismidagi qiya tushuvchi darzliklar bilan birlashish joylarida sodir bo‘lgan. Boshqa elementlar metallogeniyasi. Metallogenik belgilar hali ko‘p o‘rganilmagan, biroq istiqboli juda yaxshibo‘lgan bazit-ultrabazitli zonalar nikelli, skarn-temir ma’danli, misli, kamyob metalli (pegmatitlar) volframli, qo‘rg‘oshin-ruxli minerallashuv aniqlanadi[4].

Chaqilqalyan tog‘lari volfram va boshqa foydali qazilmalarning namoyonlari va konlari borligi bilan ajralib turadi. Chaqilqalyan tog‘larida volfram ma’danlashuvining hosil bo‘lishini o‘rganish orqali, bizga kelgusida istiqbolli volfram ma’danli tanalarni topishdan darak beradi va davlat zaxirasini boyitadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Хамрабаев И.Х., Ражабв Ф.Ш. Основқ петрография // Укитувчи, 1964.
2. Егоров П.Ф., Волкова З.В. Отчет о результатах детальных поисков месторождений вольфрама в Ходжадыкском рудном поле и на участках Восточный Камангаран и Катаган. Отчет Гарданской ГПП за 1980-83 г.г.
3. Егоров П.Ф., Стрыгин В.П. Отчет о результатах детальных поисков в пределах Джамскогоскарнового поля (в западном окончании гор Каратюбе на участках Кызылбаш, Аткамар, Сазаган) и поисково-оценочных работ на рудопроявлении Ходжадык. Отчет Джамской ГПП за 1976-80 г.г.
4. Румянцев Е.А. и др. Геологический отчет о результатах поисковых и поисково-разведочных работ на вольфрам в горах Чакыл-Калян и предварительной разведки северо-восточной части месторождения Яхтон в 1968-71г.г.
5. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "G‘ARBIY O‘ZBEKISTONDA TERRIGEN YURA YOTQIZIQLARINING GAZLILIK ISTIQBOLLARI." *Journal of new century innovations* 38.1 (2023): 93-96.
6. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH (QGY) NI AMALGA OSHIRISHDA QO ‘LLANILADIGAN AGREGATLARNING BOG ‘LANMASI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 1. 2023.
7. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHAROITIDA QATLAM GIDRAVLIK YORILGANDAN KEYIN QUDUQDA YUVISH ISHLARINI AMALGA OSHIRISH BO ‘YICHA KO ‘RSATMALAR." *Educational Research in Universal Sciences* 2.4 (2023): 582-585.

8. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "GAZ AJRATGICHNING ISH PRINSIPI VA TUZILISHINI O‘RGANISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 163-168.
9. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor, and Raufov Mirabbos Mamadali o‘g‘li. "QATLAMNI SINAB KO‘RISH USULLARI. QATLAMNI TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SINAB KO‘RISH USULLARI. XIMOYA TIZMASI ORQALI SINASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 169-173.
10. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "QUDUQ TUBI DVIGATELLARI YORDAMIDA BURG‘ILASHDA QUDUQNI SIRKULYATSION TIZIMIDAGI BOSIM YO‘QOTILISHINI HISOBLASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 174-178.
11. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO ‘LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
12. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO ‘LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
13. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "QATLAMNI GIDRAVLIK YORISHDA QO ‘LLANILADIGAN ERITMALAR TURINI ASOSLASH." *Journal of new century innovations* 11.1 (2022): 69-75.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14038654

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY HOLATI

Karabayeva Zumrat Tairovna
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

Kamiljanova Sevara G‘ayratovna
Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy talablari, atmosfera havosini muhofaza qilishga oid xalqaro hujjatlar va qonunchilikka doir ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *atmosfera, ozon qatlami, ma’muriy javobgarlik, qonunlar, xalqaro hujjatlar.*

Yer kurrasini o‘rab olgan havo qatlami “atmosfera” deyiladi. Atmosfera o‘zining hajmi bo‘yicha yer sayyorasining qolgan qismlaridan bir necha marta katta bo‘lishiga qaramay, uning massasi yer massasidan 0,000001ga yaqin qismini tashkil etadi. Eng toza havo okean suvlari ustidadir. Qishloqlar ustida havodagi chang zarralari miqdori okean yuzasidagiga nisbatan 10 barobar, shaharlar ustida 35 barobar, sanoat korxonalari ustida 150 barobargacha ortiq bo‘ladi. Havoning chang bilan ifloslanishi, asosan yer sathidan 1,5-2 km balandlikkacha kuzatiladi va quyosh nurlarini yozda 20 % ini, qishda 50 % ni tutib qoladi. Yerda hayotning davom etishi, asosan, havoning tozaligiga bog‘liq. Masalan, inson ovqatsiz va suvsiz bir necha kun yashay olishi mumkin, ammo havosiz faqat 5 daqiqagina yashaydi. Toza havo faqat inson uchungina emas, balki hayvonot va o‘simlik dunyosi uchun, shuningdek, antibiotiklar, yarim o‘tkazgichlar, yuqori aniqlikka ega bo‘lgan o‘lchov asboblari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari uchun ham zarurdir.

Atmosferaning ifloslanishi deb, bir so‘z bilan aytganda havo tarkibiga begona moddalar va qo‘shimchalarning me’yoridan ortiq to‘planishiga aytiladi. Atmosfera havosining ifloslanishi 2 xil: tabiiy va sun’iy (antropogen) bo‘lishi mumkin. Ifloslanish har qanday modda yoki energiya shaklida bo‘lishi mumkin. Tabiiy manbalarga chang, chang to‘zon, vulqonlarning otilishi, koinot changlari va boshqalar kiradi. Tabiiy manbalardan keladigan ifloslantiruvchi moddalarning 3/4 foizi noorganik genezisga

ega. Tabiiy manbalardan atmosferaga qo‘shilgan turli moddalar ma’lumotlarga qaraganda har yili o‘rtacha 700 mln. tonnadan 1,5 mlrd. tonnagacha tuproq changi, o‘rmonlarning yonishi natijasida 360 mln. tonnagacha turli aralashmalar atmosferaga qo‘shiladi. Ularning jami o‘rtacha 2,3 mlrd. tonnasi aerozolni (havoda muallaq turuvchi qattiq yoki suyuq zarrachalar) tashkil qiladi.

Endi sun’iy, ya’ni antropogen ifloslanish manbalariga keladigan bo‘lsak, sun’iy deganimizning o‘zi bu inson omili natijasida amalga oshiriladigan jarayonlardir. Atmosferaning sun’iy manbalar hisobiga chiqindilar bilan ifloslanishi borgan sari kuchayib bormoqda. Issiqlik elektrostansiyalar tutun bilan birga havoga oltingugurtli va karbonat angidrid gazlar va boshqa birikmalarni, metallurgiya, ayniqsa rangli metallurgiya korxonalari, gaz holida azot oksidlari, vodorod sulfid, uglerod oksid, xlor, ftor, fosfor birikmalari, turli metall zarrachalari, simob va boshqa xuddi shunday chiqindilarni kimyo korxonalari, sement ishlab chiqaruvchi va paxta tozalovchi zavodlar ko‘p chang chiqaradi. Masalan, cho‘yan eritish va undan po‘lat tayyorlash jarayonida 1 tonna cho‘yan eritilganda 4,5 kg chang, 2,7 kg oltingugurtli gaz, 0,5-1,1 kg marganes ajralib chiqadi.

Insonning iflos havoda nafas olishi ko‘pgina ko‘ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Inson tabiatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida uning musaffoligidan, go‘zalligidan tabiiy boyliklaridan bahramand bo‘lib kelgan. Ayni kunga kelib, toza havo, toza suv tushunchasi nisbiy tushunchalarga aylandi.

Atmosferaning ozon qatlami quyoshning insoniyat uchun, umuman, yer yuzidagi barcha hayvon va o‘simliklar olami uchun o‘ta zararli bo‘lgan ultrabinafsha nurlarini “tutib” qoluvchi asosiy to‘siq vazifasini bajaradi. U yer yuzidan 15-45 km gacha yuqorida joylashgan bo‘lib, sayyoramizdagi hayotni muhofaza qilib turadi. Ozon qatlami quyosh nurlari ta’sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘ladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari haqida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarida aytib o‘tilgan. Ular inson hayoti hamda o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun qulay atmosfera havosini ta’minlashga qaratilgan. Atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy chora tadbirlari tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy chora tadbirlardan iborat bo‘lib, bular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Atmosfera havosini muhofaza qilishda texnologik tadbirlarning ahamiyati kattadir. Ko‘riladigan tadbir asosida tashqi muhit obyektlariga, jumladan, havoga tashlanadigan chiqindilar miqdorini qisqartirish yoki mutlaq to‘xtatish zarur. Buning uchun sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni takomillashtirish, hatto chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kam chiqindili hamda chiqindisiz sanoat korxonalarini tashkil qilish to‘g‘risida maxsus deklaratsiya qabul qilingan. Bu hujjat asosida BMT Yevropa iqtisodiy hay’atining chiqindisiz va kam chiqindili korxonalar tashkil qilish faoliyatida ko‘p mamlakatlar qatnashmoqda.

Bundan boshqa yana ko‘p shartnoma va tashkilotlar aynan ekologiya va atmosferada yuz berayotgan masalalarni hal etish uchun ko‘plab davlatlar bilan bitim imzolaganlar. Atmosfera havosini muhofaza qilishga doir qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Atmosfera havosining holatini kuzatish, u haqidagi axborotni to‘plash, umumlashtirish, tahlil etish va istiqbolni belgilash atrof tabiiy muhitning davlat monitoringgi yagona tizimi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun 1996-yil 27- dekabrda qabul qilingan. Bu qonunning 5- moddasiga ko‘ra atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tabiat bilan inson bir-biriga uzviy bog‘langan. Shu sababdan ham inson uning ne’matlaridan oqilona foydalana olishi kerak. Eng asosiy boyligimiz suv va atmosfera havosi hisoblanadi. Bularni asrash yoki ifloslantirish albatta, insonning o‘ziga bog‘liq. Inson birgina xatosi tufayli boshqalarning sog‘ligiga putur yetkazishi mumkin. Masalan, ayrim odamlarning ko‘chalarga chiqindilarni tashlashi va atrof-muhit tozaligiga e’tiborsizligi oqibatida boshqa kishining sog‘ligiga zarar yetishi va yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlar kuzatilsa “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning ma’muriy va jinoiy huquqiy javobgarlik kodekslaridan foydalanib ish ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida” gi kodeksning 85-moddasiga binoan: Ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta’sir ko‘rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish; 88- moddasida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik uchun ham javobgarliklar ko‘rsatilgan. Yuqorida talablarni buzganlik uchun fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.S.Sultonov “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari” darsligi Toshkent-2007.
2. Н.Н.Тятенкова "Экология человека: социально-демографические аспекты". Ярославль. 2008.
3. Денисова В.В. Промышленная экология. Ростов. 2007.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 1996-yil 27-dekabrdagi qonuni//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi , 1997.
